



Allamova Sh.Sh., Rizayeva S.D.,  
Marek Milosz

# INFORMATIKANING NAZARIY ASOSLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLİY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Allanova Sh.Sh., Rizayeva S.D., Marek Milosz.

**INFORMATIKANING NAZARIYASOSLARI**

O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLİY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

Chirchiq-2023

**Allanova Sh.Sh., Rizayeva S.D., Marek Milosz.** /  
**Informatikaning nazariy asoslari/ O'quv qo'llamma –Chirchiq:**  
 «Olmaliq kitob business», 2023 y. 212-b.

O'quv qo'llamma informatika fani, kompyuterning yaratilishi, hamda kompyuterning texnik va dasturiy ta'minotlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga informatikaga oid tushunchalar, axborot tushunchasi va turlari, sanoq sistemalari va ular ustida amallar bajarishni, kompyuter avlodlari tarixi, kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari, amaliy dasturlar paketi, shuningdek internetda ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

**Taqrizchilar:** t.f.d., TVCHDPI, Ahmedjonov D.G'  
 t.f.d. dotsent, TATU, Beknazrova S.S.

**KIRISH**

Insonda axborotni tartiblashtirish, qayta ishslash va saqlashga talab qadim zamondan paydo bo'lgan. Yozuvning paydo bo'lishi ham, balki insonning bu talabini qondirishga intilishi natijasidir. XX asrda insoniyat axborot portlashning guvohi bo'idi. Inson qabul qildigan axborot har o'n yilda ikki marta oshayapti. Agar awval faqat asosan matnli va sonli ma'lumotlar tartiblashtirilgan bo'tsa, hozir inson tuyg'u organlariga keladigan har qanday axborotni qayta ishslash zaruriyatı tug'ildi. Kompyuter texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, shu jumladan, kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bu masalani yechishga imkon bermoqda.

Bugun axborotlarni elektron ko'rinishda saqlashni va jamlashni tashkil qilish unchalik murakkab ish emas ekan. Xatto Internet texnologiyalarini qo'llab yer sharining ixtiyoriy nuqtasidagi elektron arxivdan foydalanishni tashkil qilish mumkin.

Ammo, insonlar oldida endi boshqa ulkan arxivlardan o'zlariga kerakli axborotni oson va tez topa oладиган qilib tashkil qilishdek yangi real muammoni hal qilish, vazifasi paydo bo'ldi.

Bu yangilanishlar natijasida sohalarda ma'lumotlearning ko'payib ketishi turli yangi hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarning asosiyalaridan biri ma'lumotlearning ko'pligi, ularning turli-tumanligidadir. Buning natijasida bugungi kunga kelib axborotlarni saqlash, qayta ishslash, saralash, tartibga keltirish, uzatish va qabul qilish kabi vazifalarga bo'lgan talab kun sayin rivojanib bormoqda. Mana shunday masalalar bilan informatika fani shug'ullanadi. Informatika — axborot (xabar, ma'lumot va xo'kazo) jamlash va qayta ishlashtirish qonunlari va usullarini o'rganadi. Axborot (informatsiya) so'zi lotincha "informatio" so'zidan olingan bolib, tushuntirish, tavsiflash degan ma'noni anglatadi.

Zamonaviy dunyoda ma'lumotning bahosi katta ahamiyat kasb etadi, ammo ushbu ma'lumotni boshqarish undan ham muhimdir. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ma'lumotlearning ulkan oqimida zarur axborotni ko'rib chiqish, tahrietish va oqilona toydalananishni ko'zda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda,

hayotimizning barcha sohalarida keng qo'llanilayotgan axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni barcha sohaga tadbiq etish xozirgi kunning dolzARBmasalalaridan biridir.

"Informatikaning nazariy asoslari" fanidan o'quv qo'llanma bakalaviat ta'lim yo'nalishlarining 60110600 - Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining 1-bosqich talabalarini uchun mo'hallangan.

Mazkur o'quv qo'llanmada fan dasturida keltirilgan barcha mazvularning uzviy ketma-ketlikdag'i batafsil bayoni, o'quv kursi bo'yicha test savollari, qisqartmalar va atamalar va foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Mazkur o'quv qo'llanmada Informatika fanining mazmuni, Xisoblash texnikasining rivojlanish bosqichlari, Kompyuterning yaratilishi, Axborot tushunchasi va turlari, sanoq sistemalari va ular ustida amallar, axborotlarni kodlash va uning turlari, mantiqiy amallar va mantiqiy elementlar, operatsion tizimlar, windows operatsion tizimi bilan ishlash, kompyuterning texnik ta'minoti, amaliy dasturlar paketi, internetda ishlash asosları hamda electron to'lov tizimlari kabi tushunchalar bo'yicha talabalarga nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini shakkantirishidan iborat.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishda ayrim xato va kamchiliklar bo'lishi mumkin, bu kamchiliklarni bartaraf etishda o'z takliflari bilan o'rtoqlashgan o'quvchilarga minnaddorchilik bildiramiz. Barcha fikr va takliflarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

## Zarur.

**Informatika** — axborot (xabar, ma'lumot va xokazo) jamlash va qayta ishlashning qonunlari va usullarini o'rGANADI.

Axborot (informatsiya) so'zi lotincha "informatio" so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, tavsiyflash degen ma'noni anglatadi.

Informatikaning rivoj topishi axborotni jamlab, qayta o'zida ishlaydigan EXMning dunyoga kelishi bilan bog'lik. Elektron xisoblash mashinasi (EXM) yoki kompyuter (kompyuter so'zi engizcha computer so'zidan olingan bo'lib, xisoblovchi degen ma'noni bildiradi) esa shu axborotlarni to'plab, qayta ishlaydigan

## I-BOB. INFORMATIKA, XISOBLASH TEHNİKASI ASOSLAR

### 1.1. Informatika fanining mazmuni

Xususan, tabiat qonunlarini matematika, kimyo, fizika yoki biologiya fannidan, iqtisod va jamiyatning rivojlanishini jamiyatshunoslik yoki tarix fanidan bilib olgansiz.

Shunday fanlar borki, ular bir necha fanlar bog'liqligida o'rGANILADI, masalan biofizika, tabiatni muxofaza qilish va xokazo. Informatika ana shunday fanlardan biri bo'lib, u ayni vaqtida inson faoliyatini turli jabxalariga keng qo'llanilmoqda. Bu fan XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga keldi.

Zamonaviy xisoblash mashinalaridan amaliy ish faoliyatida keng foydalana oladigan yetuk mutaxassislar, jumladan muxandis-quruvchilar hamda iqtisodchilar tayorlash ayni paytda kechiktirib bo'lmaydigan omillardan birdir. Shu bois barcha oliv o'quv yurtlarida "Informatika" kursi asosiy fanlar qatorida o'qitiladi. Chunki bo'lajak muxandislar inshoat qismalarining ustivor bo'lishini aniqlashda ko'pgina xisoblash ishlarini qo'lda bajarishlariga to'g'ri keladi, bu esa o'z navbatida bir munkha qiyinchiliklar tug diradi. Shu tufayli qaralayotgan masalani EXMdA yechishni amalga oshirishning asosiy qoidalari va usullarini hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda EXMning turgan o'rmini bo'tajak muxandsis talaba davridanoq bilishi

qurilmadir. Shunday qilib, **informatika** – inson faoliyatining turli jaxbalaridagi axborotlarni qidirish, jamlash, saqlash, uni qayta ishlash haqidagi fandir.

Demak, axborot tushunchasi informatika fanining asosiy tushunchasi xisoblanadi.


Axborot — insoning sezgi organlari orqali qabul qilinadigan barcha ma'lumotlar maimui. Inson axborotni uni o'rabi turgan tabiatdan, tevarak atrofdan oladi. U yaqindagi axborotlarni sezgi organlari orqali olsa, uzoqdagi axborotlarni olish uchun texnik vositalar kerak. Shu bois, insonlar axborotlarni qidirish, to'plash va qayta ishlash uchun turli xil uskuna va vositalardan foydalanganlar. To'plangan axborotlardan lozim bo'lganda ishlatish uchun axborot tashuvchi vositalardan foydalanishgan. Axborotlarni turli vositalarda, xususan gazeta-kitoblarda, magnet tasmalarida, diskettarda saqlash mumkin. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uni uzatish kabi ishlar majmuini bajarishda asosiy texnik vosita bolib kompyuter xisoblanadi. Shu bilan bir qatorda axborotlarni almashinuv amallarini bajaruvchi aloqa vositalari — telefon, telefaks va xokazolar mavjudki, ular xam axborot texno-logiyasining asosiy texnik vositalari xisoblanadi.

O'zbekistonda mazkur soxada ilmiy tadqiqotlar olib borishda yetakchi o'rinni O'zbekiston Fanlar Akademiyasi "Kibernetika" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi egallaydi. Birlashma taniqli *akademik olim Vosil Qobulov* tashabbusi bilan 1966 yilda tashkil qilingan. Komyuterni inson faoliyatining turli soxalariga qo'llashga bo'lgan intilish kundan-kunga ortib bormoqda.

Informatika fani kompyuterda ishlash ko'nikmalari haqida ma'lumot berib, u bilan muloqat o'rnatish usullarini o'rgatadi va unda turli masalalarni yechha olishga yo'naltiradi. Informatika fanini o'rganish jarayonida xozirgi zamон kompyuterlari bilan muloqatda bo'tib, uning texnik imkoniyatlarini o'zlashtirish, algoritmlash usullarini va turli amaliy masalalarni yechish uchun dasturlash tillari (*C++* yoki *Python*) dan birida dastur tuzish hamda amaliy dasturlar paketidan foydalana bilish lozim. Kompyuter imkoniyatlarini va dastur tuzishni o'zlashtirgan xolda o'z mutaxassisligi bo'yicha yechiladigan masalalarga va muammolarga ularni tatbiq qilish ko'nikmasini hosil qilishi kerak.


## 1.2. Xisoblash texnikasining rivojlanish bosqichlari

Insonlar qadim zamonalardan boshlab xisoblash ishlarida duch kelayotgan qiyinchiliklarni yengillashtirish ustida bosh qotirib, timmay izlanib, asta-sekin bu muammoni yecha boshlashgan. Dastlab, xisoblash quroli sifatida qo'l barmoqlaridan foydalaniла boshlangan. Keyinchalik xisoblashni yog'och tayoqchalar yordamida bajarishgan. Xitoy, Xindiston va Sharqning boshqa mamlakatlarda sonlarni yozish va xisoblash ishlarini bajarish uchun qadimgi xisoblash asboblaridan biri bo'lgan abak xisoblash taxtasidan foydalanishgan (1.1-rasm).



1.1-rasm. Abak xisoblash taxtasi

XVII asrda logarifm yaratildi va shundan keyin yangi xisoblash asbobi-logarifmik chizg'ich kashf etildi. Ana shular bilan bir vaqtida Shikkard, Paskal va Leybnislarning xisoblash mashinalari dunyoga keldi. 1642-yilda fransuz olimi Blez Paskal yaratgan jamlash mashinasi birinchi xisoblash mashinasi deb qabul qilingan (1.2-rasm).



## 1.2-rasm. Paskalina xisoblash mashinasi

Paskalina (Paskalning xisoblash mashinasi) — 1642-yilda fransuz olimi Blez Paskal (1623-1662) tomonidan ixtiro qilingan mexanik hisoblash mashinasi.

Paskal mexanik hisoblash mashinalarining birinchi ixtirochisi edi. U 19 yoshida mashina ustida ishlay boshlagan, soliq yig'uvchi va ko'pincha uzoq va zerikari hisob-kitoblar bilan shug'ullanadigan otasining ishini nazorat qilgan.

O'z waqtida Paskalina, albatta, juda futuristik ko'rinishga ega edi: bir nechta vitesli mexanik "quti" edi. O'n yil davomida Paskal quriimaning 50 dan ortiq turli xil versiyalarini to'plasnga muvaffaq bo'ldi. Qo'shilishi kerak bo'lgan raqamlar, terish g'ildiraklarini aylantirish orqali mashinaga kiritildi, ularning har biri 0 dan 9 gacha bo'linishlar bilan belgilandi.


Paskal mashinasining birinchi nusxalari beshta tishli bo'lib, bir muncha vaqt o'tgach, ularning soni olitiga, birozdan keyin esa sakkiztaga ko'paydi, bu esa ko'p xonali raqamlar bilan ishlashtimkonini berdi.

Gildiraklarning aylanishi faqat bitta yo'nalishda harakatlanishi mumkin edi, shuning uchun manfiy raqamlar bilan ishlashtimkoniyati yo'q edi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Paskal mashinasi ham qo'shish, ham boshqa operatsiyalarini bajarishga qodir edi, ammo utakroriy qo'shimchalar uchun juda noqulay protsedurada foydalanishni talab qidi. Ayirish to'qqizgacha bo'lgan qo'shimchalar orqali amalga oshirildi.

Lekin 1623-yilda Shtutgart shaxri arxivida professor V.Shikkard kashf etgan xisoblash mashinasining chizmasi topilgan. Chamasi bu mashina tor doiradagi kishilarga ma'lum bo'lib, uch qismidan: qo'shish va ko'paytirish qurilmasi hamda oraliq

natiijalarini qayd etish mexanizmidan tuzilgan edi. V.Shikkard qurilmasi bevosita qo'shish va ayirish amallarini bajargan. Bundan tashqari rus olimlari V. Bunyakovskiy va P.L.Chebishevlar yaratagan qurilma xisoblash texnikasining taraqqiyoti uchun muhim axamiyat kasb etadi.

Taniqli ingliz olimi Ch.Bebbidjning mexanik arifmometr yaratishi XIX asrning yana bir kashfiyoti bo'ldi. Mexanik arifmometr murakkab masalalarni yechadigan matematik mashinalarning paydo bo'lishiga asos soldi. Bu mashinaning kiritish ko'zda tutilgan, yetarli darajada texnika bazasi bo'Imaganligi tufayli Bebbidj bu ajoyib mashinami oxirigacha yetkazishga mayassar bo'la olmadi. Lekin uning g'oyasi XX asrda elektron xisoblash mashinalarida o'z amaliy o'rmini topdi(1.3-rasm).



## 1.3-rasm. Ch.Bebbidjning mexanik arifmometri


XX asrning 30-40-yillarida ikkilk—o'nik sistemadan foydalaniib, elektromagnit relelar asosida dasturlanadigan xisoblash mashinalari yaratishga urinib ko'rildi. 1940-yilda amerikalik muxandis G.Eytken bunga erishdi. Uning mashinasi arifmometr bilan 20 ta operator o'rmini bosa oladigan bo'lib, katta xonaga joylashgan va ko'p miqdorda energiya istemol qilar edi. Bu mashina bilan elektromagnit elementtlar bazasida mashinalar yaratish imkoniyati uzil-kesit xal bo'lgan edi.

Xisoblash texnikasining keyingi taraqqiyoti elektron sxemalar qo'llanilishiga asoslanadi. Elektron xisoblash mashinalarini yaratishga birinchi marta amerikalik muxandis J.Aтанасов ikkinchi jaxon urushi arafasida urinib ko'rdi.

AQSH olimlari J.Mouchli va J.Ekkert loyihasi asosida 1964-yilda ENIAC EXMi yaratildi(1.4-rasm).

Bu mashinaning konstruksiyasini taxli qilish asosida amerikalik matematik J. Fon Neyman EXM yasashning asosiy tamoyillarini, shu jumladan, ikkilik sanoq tizimidan foydalanish va dasturni operativ xotirada saqlash tamoyillarini ilgari surdi.

1942-1945-yillarda dastlab, AQSHdagi Pensilvaniya universitetida Elektron lampali raqamli sanoq mashinasi yaratildi va u ENIAC deb nom oldi.




#### 1.4-rasm. J.Mouchli va J.Ekkertning ENIAC EXMi

ENIAC (Electronic Numerical Integrator and Computer — ENIAC, qisqartmasi Electronic Numerical Integrator and Computer) — keng ko'lami muammolarni hal qilish uchun qayta dasturlash mumkin bo'lgan birinchi umumi maqsadli elektron raqamli kompyuter.

Keyinroq, AQSHda va Buyuk Britaniyada "EDVAK", "EDSAK", "SEAK", "UNIVAK" va boshqa turdag'i EXMi yaratildi. Bu turdag'i mashinalar xisoblash texnikasi taraqqiyotida yangi bir davrni boshlab berdi.

Birinchi bo'lib sobiq ittifoqda elektron sanoq mashinasi akademik S.A. raxbarligida 1951-yili Ukraina FA "Elektronika" institutida yaratildi va MESM (kichik (malaya) elektron sanoq mashinasi) deb nom oldi. 1954-yili aniq mexanika va xisoblash texnikasi institutida S.A.Lebedev raxbarligida BESM (Katta elektron sanoq mashinasi) yaratildi, u 2048 ta xotira yacheysiga ega bo'lib,

sekundiga 9 ming amalni bajarar edi. Usha vaqtida "BESM" jaxonidagi eng tezkor mashina edi(1.5-rasm).



#### 1.5-rasm. Besm elektron sanoq mashinasi

EXMning rivojlanish taraqqiyotida ularni avlodlarga ajratish qabul qilingan bo'lib, ularning xar biri elementlarning tayyorlanish texnologiyasi va jixozlarining parametrlari, shuningdek, xal etiladigan masalar va dasturi bilan ajralib turadi.

Birinchi avlod mashinalari 1950-yillarda ishlab chiqarilgan bo'lib, asosiy komponentlari elektron lampalardan iborat bo'lgan. EXMlar minglab lampalari ko'plab elektr energiya talab qigan, katta miqdorda issiqlik ajratib chiqargan va ko'p joyni egallagan. Bu mashinalarning amal bajarish tezlig'i past, xotira sig'imi kichik va tez-tez ishdan chiqib turgan. Dasturlar mashina kodida yozilgan. Dastur tuzuvchi o'zi xotira yacheysagini dastur orqali taqsimlagan. Birinchi avlod mashinalariga quyidagilar kiradi: BESM-1, BESM-2, Strela, M-3, Minsk-1, M-20 va boshqalar.

1960-yillarning boshlariда elektron lampalar o'rniiga yarim o'tkazgichlar va ular bazasida yaratilgan tranzistorlar ishlatala boshlandi, bu esa mashinaning massasi, o'chovlari va iste'mol qiladigan energiya va issiqlik ajralishini keskin kamaytirish imkonini berdi. Yarim o'tkazgichli mashinalar EXMning ikkinchi avlod bo'idi va ularning ishlash ishonchiligi va tezligi ancha ortdi. Bu avlodga mansub mashinalarning o'ziga xos xususiyatlardan biri ularning qo'llanilish sohasi bo'yicha ixtisoslashtirilishdir. Bu mashinalarda qo'yilgan masalalarini yechish uchun dasturlash tillaridan foydalanila boshlandi.

EXMning ikkinchi avlodiga quyidagi mashinalar kiradi:Minsk-2, Ryazan, BESM-6, Mir, Nairi, Minsk-22, Minsk-32 va boshqalar. Ishonchilik, ixchamlik, ishlattishga qulaylik masalalari EXM

elementlari bazasini maqbul taylorlashning mutlaqo yangi texnologiyasi yaratilishiga sabab bo'ldi. Elektron apparatlarining standart sxemalari va bloklari murakkab strukturali yarim o'tkazgichli monolit kristallar shakildida tayyoriana boshlandi va ular integral mikroelemxemalar nomini oldi.

Apparatlar bloklari mujassamlangan integral sxemalarining sanoatda ishlab chiqarilishi 1960-yillarning oxirida uchinchi avlod EXMning yaratilishiga olib keldi. Bular jumlasiga sobiq ittifqoda yaratilgan katta va o'rtacha EXMlar (Ural-11, Ural-12, Ural-15 va yagona tizim YeS lari) va SM seriyali EXMlar kirdi. Bu mashinalardan eng quvvatlisi xisoblangan EXM YeS-1060 sekundiga 1,5 mln. amalni bajarar edi. YeS EXMining operativ xotirasi yuzlab kilobayt va megabayt bilan o'lchanadi. Uchinchi avlod EXMlarni joylashtirish uchun maxsus jixozlangan mashina zallari talab qilinad edi.

Katta integral sxemalarining paydo bo'lishi sonli axborotlarni qayta ishlab chiqadigan dastur asosida boshqariladigan qurilmalar — mikroprotsessorlarning yaratilishiga olib keldi. Sanoatda 1970-yillarda mikroprotressorlar asosida to'rtinchavi avlod mashinalari — mikro EXMLar ishlab chiqarila boshlandi. To'rtinchavi avlod mashinalari tarkibiga sobiq ittifoqda yaratilgan ELBRUS-2, M-10 EXMLari va xozingi zamon shaxsiy kompyuterlari xam mansub. Mikrokompyuterlar qurilmalarining boshqarish qurilmasi, bitta katta integral sxemalar tarzida ishlanganligi uchun ularning tashqi qurilmalari uncha katta emasligi, ishslash tezligi va baxosi arzonligi bilan ajarilib turadi.

Mikroelektronikaning yutuqlari asosida shaxsiy elektron xisoblash mashinalari (ShEXM) yaratildi. Arzon, kichik xajmadi avtonom mikroprotressorli xisoblash sistemasi ShEXMlarning ommaviy qo'llanilishi ko'plab dasturli vositalar, ya'ni amally dasturlar paketi, operatsion tizimlar, translyatorlar va boshqalarni yaratishga olib keldi.

Keyingi yillarda mikroprotressorlar paydo bo'lishi natijasida, ular asosida ko'plab ixcham ShEXMlar yaratilmoqda. Ular baracha soxalarda keng sur'atlar bilan qo'llanilmoqda. Ayni vaqtida beshinchavi avlod EXMlari ustida ish olib borilayapti.

**Beshinchchi avlod kompyuterlari** son-sanoqsiz modullarni bitta chipga joylashtirishga imkon beradigan o'ta katta miqyosi integratsiya texnologiyasiga tayanib, sun'iy intellekt bilan bog'iqliq texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi.

Ushbu kompyuterlar mutaxassis tizimlari, sun'iy intellekt, robototexnika va boshqalarni boshqarish uchun optik tolali texnologiyadan foydalananadi. Ular juda yuqori ishllov berish tezligiga ega va ancha ishonchli.

Uni amalga oshirish inson aqlari va raqamli asr boshidan buyon to'plangan ko'p miqdordagi ma'lumotlardan foydalangan holda odamlar va mashinalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarini yaxshilashga mo'ljallangan.

Olimlar doimiy ravishda kompyuterlarni qayta ishslash quvvatini oshirish ustida ishamoqdalar. Ushbu beshinchchi avlod zamonaviy texnologiyalaridan ba'zilari sun'iy intellekt, kvant hisoblash, nanotexnologiya, parallel qayta ishslash va hk.

Ushbu kompyuterlar og'zaki so'zlarni tushunishi va inson fikrini taqlid qilishi mumkin. Ular har xil turdag'i datchiklar yordamida atrof-muhitiga javob berishlari mumkin.

Beshinchchi avlod kompyuterlari hali rivojlanish bosqichida, chunki u hali haqiqat emas. Ushbu kompyuter hali tugallanmagan. Olimlar hanuzgacha uning ustida ishlaromoqda.

### Beshinchchi avlodning kelib chiqishi va tarixi

1981-yilda, Yaponiya birinchi marta dunyoga kompyuterlarning beshinchchi avlodini yaratish rejalari to'grisida xabar berganida, Yaponiya hukumati boshlang'ich kapitalini taxminan 450 million dollar sarflashni rejalashtirganligini e'lon qildi.

Uning maqsadi odamlar bilan tabiiy tilda subbatlashadigan va tasvirlarni taniy oladigan aqlli kompyuterlarni yaratish edi. Bu apparat texnologiyasini yangilash, shuningdek sun'iy intellektli operatsion tizimlarni yaratish orqali dasturiy muammolarni yengillashtirish uchun mo'ljallangan edi.

O'sha vadqiga qadar kompyuterlarning avlodlari faqat apparat vositalari bilan tasniflangan, ammo beshinchchi avlod texnologiyalari dasturiy ta'minotni ham o'z ichiga oladi. Uchinchi va to'rninchchi avlod kompyuterlarning protsessorlarida topilgan ko'plab xususiyatlar beshinchchi avlodda mikroprotsessor arxitekturasining bir qismiga aylandi. Beshinchchi avlod kompyuterlari juda murakkab kompyuterlar bilan ajralib turadi, bu yerda dasturlash qobiliyatlari foydalanuvchini uchun zarur emas.

Ushbu kompyuterlar katta xotira va saqlash hajmidan tashqari yuqori ishlashga ega. Beshinchchi avlod kompyuterlarning maqsadi tabbiy tilga javob beradigan, o'rganish va tartibga solishga qodir bo'lgan mexanizmlarni ishlab chiqishdir. Ushbu kompyuterlar odamlar bilan subbatlashishi mumkin, shuningdek,

insonning hissiyotlari va aql-idrokiga taqlid qila oladi. Kompyuter sun'iy intellektga ega va shu bilan tasvir va grafikalarni taniy oladi. Ular ovozni aniqlash funksiyasiga ega. Ushbu mashinalar VLSI (juda katta o'chovli integratsiya) va Ultra katta o'chovli integratsiya (ULSI) texnologiyasini o'z ichiga oladi. Parallel ishlov berish va super o'tkazgichlardan foydalanish sun'iy intellektni haqiqatga aylantirishga yordam beradi. Ushbu avlod kompyuterlari bilan ishlash tez va siz bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishingiz mumkin. Ularda parallel ishlov berish uchun ko'p protsessorli tizim mavjud.

Mikroprotsessorlar ishlab chiqaradigan kompaniyalar qatoriga Intel, Motorola, Zilog va boshqalar kiradi. Bozorda 80486 va Pentium modellari bilan Intel mikroprotsessорlari mayjudligini ko'rishingiz mumkin.

CPU soat tezligi 3-5 gigagerts oralig'ida ko'tarila boshtaganda, protsessor quvvatini yo'qotish kabi boshqa muammolarni hal qilish muhimroq bo'ldi.

Nvidia va AMD kabi grafik kartalar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar CUDA va OpenCL kabi yirik parallel tizimlarni joriy qilishni boshladilar. Ushbu kompyuterlarda parallel ishlov berish qo'llaniladi, bu yerda ko'rsatmalar parallel ravishda bajariladi. Parallel ishlov berish ketma-ket ishlov berishga qaraganda ancha tezroq. Ketma-ket ishlov berishda har bir topshiriq birin-ketin


bajariladi. Boshqa tomondan, parallel ishlov berishda bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalar bajariladi.

Beshinchchi avlod kompyuterlarga ko'p muammolarni o'zidan hal qilishga imkon berdi. Dasturiy ta'minotda sun'iy intellektidan tortib ob'ektga yo'naltirilgan dasturlashgacha katta yutuqlarga erishdi.

Asosiy maqsad odamlar foydalanadigan oddiy tilga javob beradigan qurilmalarni ishlab chiqish edi. Ular C ++ va Java kabi juda yuqori darajadagi tillardan foydalanadilar.

### 1.3. Kompyuterning yaratilishi

EXM hajmini qisqartirishga va kompyuter yaratilishiga 1948-yilda yaratilgan tranzistorlar sabab bo'ldi, chunki elektron lampalar o'mini kichik xajmdagi tranzistorlar egallashiga imkon yaratildi. 1965-yilda Digital Equipment firmasi PDP-8 rusumli dastlabki minikompyuter yaratdi(1.6-rasm).



1.6-rasm. PDP-8 minikompyuteri

Ayni shu davrda minikompyuterlar yaratilishiga, ya'na bir yangilik-integral sxemalar kashf etilishi bo'ldi. 1959-yilda Intel firmasining bo'lg'usi asoschisi Robert Noyz bita plastinkada

tranzistorlarni o'zaro bog'lash usulini yaradti. Bu elektron sxemalar keyinchalik integral sxemalar deb yuritila boshladi.

Shunday qilib, 1968-yilda Burroughs firmasi dastlabki integral sxemalar asosida ishllovchi kompyuter yaratdi.

1970-yildan boshlab Intel firmasi xotiraning integral sxemasini ishlab chiqarib, keng miyosda sota boshladi. 1973-yilda Intel firmasi tomonidan 8-baytli Intel-8008 mikroprotsessori 1974-yilda Intel-8080 versiyasi yaratildi. 1970-yilda shaxsiy kompyuterlarning yuzaga kelishi katta EXMlarga bo'lgan talabni susaytirdi. Bu esa o'z navbatida IBM (International Business Machines Corporation) firmasi faoliyatiga keskin ta'sir o'tkazdi. 1979-yilda boshlangan izlanishlar 1981-yilda (16 razryadli Intel-8088 mikroprotsessori asosida) yaratilgan va bozorda o'z ornini topgan IBM PC kompyuterida o'z samarasini berdi. Oradan ikki yil o'tib, bozorda o'zinining munosib o'rnnini egalladi. 1983-yilda IBM PC XT, 1985-yilda IBM PC AT kompyuterlari ishlab chiqarildi.

Ko'p o'tmay boshqa firmalar ham IBM PC kompyuterini ishlab chiqara boshladi. Ayni vaqtida u nafaqat Amerika va Yevropa mamlakatlariда balki Janubiy-

Sharqiy Osiyo mamlakatlariда, xususan Tayvan, Janubiy Korea, Yaponiya, Singapur, Malayziya mamlakatlarida ham g'arb mamlakatlariqa qaraganda arzonroq narxda ishlab chiqarib jaxon bozorida sotila boshladi.

## Nazorat savollari

1. Informatika fanning mazmuni haqida so'zlab bering.
2. Birinchi hisoblash mashinasi kim tomonidan va nechanchi yilda yaratilgan?
3. Daslabki elektron lampali xisoblash mashinasi qachon yaratilgan va u qanday nomlangan?
4. Dastlabki PDP-8 rusumli mini kompyuter qachon va qaysi firma tomonidan yaratilgan?
5. IBM firmasi dastlabki kompyuterini qachon jahon bozoriga chiqardi?
6. IBM PC AT kompyuteri qachon yaratilgan?

## II-BOB. AXBOROT TUSHUNCHASI VA TURLARI. AXBOROT

### O'LCHOVLARI

#### 2.1. Axborot tushunchasi va turlari

Sayyoramizda tirik mavjudot paydo bo'lgandan boshlab, atrofini o'rab turgan muhit haqida ma'lumot olish muhim ahamiyatga ega bo'lgan. BUNDAN 50-60 yillar oldin informatsiya (axborot) deganda asosan odamlar orasida o'zaro almashinadigan ma'lumotlar tushunilgan. «Axborot» so'zi, lotincha «informatsiya» so'zidan olingan bo'lib, biror ish holati yoki kishi faoliyati haqida ma'lum qilish, xabar berish, binor narsa haqidagi ma'lumot degan ma'nioni anglatadi. Axborot tushunchasidan inson faoliyatining barcha sohalariда foydalaniлади.

Olimlarning fikriga ko'ra, insoniyat 40 ming yildan ziyod vaqtidan beri hayot kechirib, shu vaqt davomida doimiy ravishda sezgi organlari orqali atrof-muhitdan turli ma'lumotlarni qabul qilib kelgan. Jamiyat paydo bo'lgandan keyin esa odamlar muloqot jarayonida axborot almashinib, uni saqlashga urinishgan. Axborot saqlashning eng qadimiy usullari haqida arxeologlар tomonidan topilgan rasm, belgilар, qadimgi qo'yozmalar orqali bilish mumkin. Inson yashaydigan dunyo turli moddiy va nomoddiy obyektlar, shuningdek, ular o'rtaсидаги o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirlardan, ya'ni jarayonlardan tashkil topgan. Sezgi a'zolari, turli asboblar va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma'lum otlar deb ataladi. Ma'lum otlar aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsa, axborotga aylanadi. Demak, ma'lumotlarga u yoki bu sabablariga ko'ra foydalanilmayotgan yoxud texnik vositalarda qayta ishlanyotgan, saqlanayotgan, uzatilayotgan belgilar yoki yozib olingan kuzatuuvlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotilardan biror narsa to'grisidagi mavhumlikni kam darajaga keltirish uchun foydalananish imkoniyati tug'ilsa, ma'lum otlar axborotga aylanadi. Demak, amaliyotda foydali deb topilgan, ya'ni foydalauvchining bilimini oshirgan.

Masalan, qog'ozga telefon raqamlarini ma'lum tartibda yozib, birovga ko'rsatsangiz, u buni biror axborot bermaydigan ma'lumot sifatida qabul qiladi.

Biroq har bir telefon raqami qarshisiga muayyan korxona yoki tashkilot nomi, uning faoliyat turi yozib qo'yilsa, awvalgi ma'lum ot axborotga aylanadi.

Ma'lum vazifalami hal etish natijasida yangi ma'lumotlar — bilimlar, ya'ni tizimlashtirilgan haqqoniy yoki sinovdan o'tgan xabarlar paydo bo'ladı. Ular qonunlar, nazzariyalar hamda tasavvur va qarashlarning boshqa majmui sifatida umumlashgan bo'lgan. Keyinchalik bu bilimlar o'zga vazifalarni hal etish yoki oldingisini aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lum otlar tarkibiga kirdi.

Insон о'з hayotida tug'ilgan kunidan (ta'bir joiz bo'lsa, hatto ona qormida dastlab paydo bo'lgan kundan) boshlab doimo ma'lum otlar bilan ish ko'radi. Ularni o'zining sevgi a'zolari orqali qabul qiladi.

Kundalik turmushta axborot deganda atrof-muhitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan) sevgi a'zolari orqali qabul qilib, anglab olinadigan har qanday ma'lumot tushuniladi. Tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo'lib, kitob va gazeta o'qib, televizion ko'rsatuvalrini ko'rib axborot olamiz. Matematik olim axborotni yanada kengroq tushunadi. U axborot qatoriga fikr yuritish orqali xulosa chiqarish natijasida hosil bo'lgan bilimlarni ham kiritadi. Boshqa soha xodimlari ham axborotni o'zlaricha talqin etadir. Shunday qilib, turli sohalarda axborot turlicha tushunilar ekan. Lekin axborotlarning umumiy tomonlari ham borki, bu ularning beshta muhim xossaga ega bo'lishidir. Bular axborotni yaratish, qabul qilish, saqlash, ishlav berish va uzatish xossalardir. Axborotdan foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning reprezentativligi, mazmundorligi, yetariligi, aktualligi, o'z vaqtidagliji, aniqligi, ishonarliliqi, barqarorligi kabi asosiy iste'mol sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liqidir. Chunonchi:

- axborotning reprezentativligi — obyekt xususiyatini adekvat ifoda etish maqsadida uni to'g'ri tanlash va shakllantirish bilan bog'liqidir;
- axborotning mazmundorligi — semantik (mazmuniy) hajmini ifoda etadi;

d) axborotning yetariligi (to'raligi) — qaror qabul qilish uchun minimal, lekin yetarli tarkibga (ko'rsatkichlar jamlannemasiga) ega ekanligini bildiradi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmagan, shuningdek, ortiqcha bo'lgan axborot ham foydalanuvchi qabul qilgan qarorlar samaradorligini kamaytiradi;

e) axborotning aktualligi — axborotdan foydalanish vaqtida uning boshqarish uchun qimmatiligi saqlanib qolishi bilan belgilanadi va xususiyatlari o'zgarishi dinamikasi hamda ushbu axborot paydo bo'lgan vaqtidan buyon o'tgan vaqt oralig'iga bog'liq bo'лади;

f) axborotning o'z vaqtidaligi — uning awaldan belgilab kechikmasdan olinganligini bildiradi;

g) axborotning aniqligi — olinayotgan axborotning obyekt, jarayon, hodisa va hokazolarning real holatiga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi;

h) axborotning ishonarliliqi — axborotning real mavjud obyektlarini zarur aniqligil bilan ifoda etish xususiyati bilan belgilanadi;

i) axborotning barqarorligi — axborotning asos qilib olingan ma'lum otlar aniqligini buzzmasdan o'zgarishlarga ta'sir qilishga qodirligini aks ettradir.

Axborotga ishlav berish texnologiyalari bugungi kunda hayotimizing hamma sohalarini qamrab olgan. **Informatikaning asosiy resursi — axborotdir.**

Azdan axborot deganda atrof-muhit obyektlari va hodisalari, ularning o'chamlari, xususiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lum otlar tushuniladi. Keng ma'noda axborot — insonlar o'rtasida ma'lumot ayirboshlash, odamlar va sun'iy qurilmalar o'rtasida signal ayirboshlashni ifoda etadigan umummiliy tushunchadir.

Ma'lumki, jamiyat rivojlangani sari iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiya, madaniyat, san'at, tibbiyot kabilaming turli masalalari haqidagi mavjud ma'lumotlar, axborot zaxiralardidan foydalanishni tashkil etish intellektual va iqtisodiy hayotga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Demak, axboriy jarayonlar ko'p qirrali jarayon ekanligi ayon bo'lmoqda.

Inson axborotni qabul qilishda uning sezgi organlari (retseptorlar) muhim rol o'ynaydi. Ular asosan, quyidagilardan iborat.

- ko'rish orqali atrof-muhitni, ranglarni va obrazlarni qabul qiladi;
- eshitish orqali tovush, musiqa, ovoz kabi axborotni qabul qiladi;
- hid sezish, burun retseptorlari yordamida turli hidlarni ajrata oladi;
- ta'm bilish, til retseptorlari yordamida achchiq, chuchuk, sho'r yoki nordon narsalarni ajrata oladi;
- his etish, teri retseptorlari yordamida issiqni sovuqdan, yumshoqni qattiq narsadan ajrata oladi. Barcha retseptorlar orqali olingan axborot inson miyasida saqlanib qoladi.

#### Inson axborotning:

- / 90 % ini — ko'rish,
- / 9 % ini — eshitish,
- / 1 % ini — his qilish, ta'm va hid bilish orqali qabul qilar ekan.

### Axborotning turlari

**Analog (uzluksiz) axborot:** Tovush, nur, kamalak ranglari, tabiat manzarsi, havo harorati, vaqt, rasm. Bunday axborottar uzluksiz axborotlarga misol bo'la oladi.

**Diskret (uzlukli) axborot:** Olingan axborot turli foto, musiqa, film, video orqali ifoda etiladi. Bunday axborotlar uzlukli axborot hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida axborotni qabul qilish, toplash va uzatishning quyidagi usul va manbalari mavjud:

- xabar
- bilim
- radio va video
- gazeta va jurnal
- internet sayti
- mobil ilova

O'tgan yuz yillikdan farqli ravishda, hozirgi kunda axborot ustida katta tezlikda izlash, toplash, saqlash, qayta ishslash, uzatish, nusxa olish, bloklash, uni maxfiylashtirish, chop etish kabi amallarni ishlanaadi, raqamli ko'rinishsga o'tkaziladi va maxsus formatlarda saqlanadi.


Insondan fargli, kompyuterlar axborotni bir necha milliard barobar tezlikda va aniqlikda qayta ishlay oladi. Masalan: 3 752 sonini 6 901 ga ko'paytirish amaliga inson 1 minut vaqtini sarflasa, zamonaviy telefon protsessori bu amalni sekundiga 100 milliard marta tez bajarishi mumkin.

Demak, kompyuterlar inson kabi matn, rasm, tovush, musiqa ko'rinishidagi axborotlarni tez va aniq bajarar ekan, ularni boshqa kompyuterga uzatish yoki qayta ishslash uchun qoshimcha texnik vositalar va kompyuter dasturlari kerak bo'ladi. Ular qisqacha axborot texnologiyalari deb ataladi.

### 2.2. Axborot o'lchovlari va turlari

Axborotni o'lchash uchun ilki ko'rsatkich kiritilgan: axborot miqdori I va ma'lumotlar hajmi V. Bu ko'rsatkichlar axborot adekvatlik shakkllarida turli ifoda va talqina ega. Har bir shakl o'ziga xos axborot miqdoriga va ma'lumotlar hajmiga ega(2.1-rasm).

**Axborotning pragmatik o'lchovi.** Bu axborotning o'lchov birligi foydalanuvchi qo'ygan maqsadni egallash uchun kerak bo'lgan axborotning yaroqliligi bilan ifodalanadi. Paragmatik o'lchov ham nisbiy bo'lib, u axborotni qaysi tizimda ishlatishga bog'liqidir.



### 2.1-rasm. Axborot o'lchovlari

## Axborotning sintaktik o'chovi

Qiyamatlar hajmi V xabarda belgililar (razryad) soni bilan o'chanadi. Turli sanoq tizimlarida bir razryad turlichcha uzunlikka ega bo'lganligi sababli ularning qiymat o'chov birliklari ham o'zgaradi:  
 ➤ ikkilik sanoq tizimida o'chov birligi – bit (ikki razryad) (axborotni o'chov birligi sifatida, ya'ni 8 bitdan iborat bo'lgan «bayt» o'chov birligi ham ishlataladi);  
 ➤ o'nlik sanoq tizimida o'chov birligi – dit (o'nlik razryad).

Axborot miqdori I ni tizim holatining noaniqlik tushunchasi (tizim entropiyasini) ko'rib chiqmasdan aniqlab bo'lmaydi.

Xabarning ixchamlik koefitsiyenti (darajasi) quyidagi ifoda bilan ko'rsatiladi:

### 1-topshiriq.

$$Y = 1/V, \text{ bu yerda } 0 < Y < 1.$$

Kitob 100 sahifadan, har bir sahifa esa 35 satrda iborat. Agar har bir satrda 50 ta simvol bor bolsa, kitobdagi axborot hajmini toping.

- Buning uchun quyidagi amallar bajariladi:
- 1) Bitta sahifadagi axborot hajmi  $35 \times 50 = 1750$  bayta teng.
  - 2) Kitobdagi axborot hajmi (har xil o'chov birliklariada):

a.  $1750 \times 100 = 175\,000$  baytga teng.  
 b.  $175\,000 / 1024 = 170,8984$  Kbayt.  
 c.  $170,8984 / 1024 = 0,166893$  Mbayt.

Ma'lumotlarni taqdim etishning ko'plab tizimlari mavjud. Hisoblash texnikasida qabul qilingan eng kichik axborot birligi bit (bit) deb ataladi. Bit ikkita qiymat qabul qilishi mumkin: 0 va 1. Darhaqiqat, bir bit o'zida minimal axborot tashiydi. Odatda, uni yoqilgan (1 holat) yoki o'chirilgan (0 holat) bo'lishi mumkin bo'lgan lampochkaga tenglashtirildilar. Ba'zan uni o'chirish-yoqish qurilmasiga o'xshatadilar: "yoqilgan" holati 1, o'chirilgani - 0.

Raqamli yoki bosqqa ma'lumotlarni ifodalovchi ikkilik razryadlar yig'indisi bitning o'ziga xos tasvirini hosil qiladi. Amaliyot ko'rsatadiki agar bu tasvir muntazam shakga ega bolsa, bitning bunday tasvir bilan ishslash juda qulay. Hozirgi paytda bunday

shakllar sifatida 8 bitdan iborat bo'lgan va baytlar deb ataluvchi guruhlardan foydalananiladi.

Agar 8 ta lampochkani olib va ularni yonna-yon bir qatorga qo'yib, bir guruhga biriktirilsa, axborotning miqdorini o'chovi yirikroq o'chov birligi - bayt (byte) haqida yaqqlol tasawur hosil qilamiz. Guruhdagi har bir lampochka bitta bitga to'g'ri keladi. Shunday qilib, bayt 8 bitdan iborat, 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval. Baytda ifodalanishi

O'nlik son	Ikkilik son	bayt
1	1	0000 0001
2	10	0000 0010
...	...	...
255	1111 1111	1111 1111

Baytning o'zaro bog'liq bitlar guruhi ekanligi haqidagi tushuncha elektron hisoblash texnikasining birinchi namunalari bilan birga paydo bo'ldi. U uzoq vaqt davomida mashinaga bog'liq bo'lib qoldi, ya'ni turli xildagi hisoblash mashinalari uchun baytning uzunligi turlichcha edi. Faqat 60-yillarning oxirlarida bayt tushunchasi universal va mashinaga bog'liq bo'Imagen tushunchaga aylandi. Amaliyot va tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'philik hollarda 8 razryadi emas, balki 16,24,32 va undan ortiq razryadi kodlashtirishni ishlatsiz maqsadga muvofiqdir. O'zaro bog'langan 16 bit (o'zaro bog'liq bo'lgan ikki bayt) dan iborat guruh informatikada so'z deb ataladi. Shundan kelib chiqib, o'zaro bog'liq to'rtta bayt (32 razryadli) dan iborat guruhdan ikkilangan so'z, 8 bayt (64 razryad) dan iborat guruhlar to'rt karrali so'z deb ataladi.

Ma'lumotlarni o'chashning turli xil tizimlari mavjud. Har bir ilmiy fan va inson faoliyati sohasi o'ziga ma'qul va qulay bo'lgan yoki an'anavy shakllangan o'chov birliklaridan foydalanishi mumkin.

Informatikada ma'lumotlarning ikkilangan universal tasviga

egaligi haqidagi dalildan foydalananadilar va shuning uchun ana shunga asoslangan o'z ma'lumot birliklarini kiritadilar. Odatda, bir bayt bilan matn axborotning bitta belgisi kodlashtirilishi sababli matn hujjatlar uchun baytlardagi o'cham belgilarda ifodalangan leksik bajmga muvofiq, mos miqdorda bo'ladi (UNICODE

universal kodlashtirish hozircha bundan mustasno).

Kattaroq o'chov birligi kilobayt (Kbayt)dir. Shartli ravishda 1 kilobaytni taxminan 1000 baytgaga teng deyish mumkin. Shartlilik shu bilan bog'iqliki, ikkilik raqamlar bilan ishlovchi hisoblash texnikasi uchun, raqamlarni ikkinchi darajasi ko'rinishida taqdim etish qulayroq va shuning uchun ushu mezondan kelib chiqib hisoblasak, haqiqatda 1Kbayt = 2<sup>10</sup> bayt (1024 baytgaga teng bo'ladi). Kilobaytlarda ma'lumotlarning nisbatan uncha katta bo'lmagan hajmlari o'chanadi. Mashinkada bosilgan, formatlashtirilmagan bir bet matn 2 Kbaytgaga yaqinini tashkil qiladi deb shartli ravishda hisoblash mumkin.

Ancha yirikroq o'chov birliklari peta-ekza-zetta perfiksleri qo'shib hosil qilinadi. Bunday kattaroq birliklarga hozircha amaly ehtiyoj yo'q.

1 bayt (b) 8 bit 2<sup>3</sup>=8 bit =1 bayt (b)

1 kilobayt (Kb) 1024 bayt 2<sup>10</sup> = 1024 b

1 megabayt (Mb) 1024 kilobayt 2<sup>20</sup> = 1 048 576 b

1 gigabayt (Gb) 1024 megabayt 2<sup>30</sup> = 1 073 741 824 b

1 terabayt (Tb) 1024 gigabayt 2<sup>40</sup> = 1 099 511 627 776 b

1 petabayt (Pb) 1024 terabayt 2<sup>50</sup> = 1 125 899 906 842 624 b

1 eksabayt (Eb) 1024 petabayt 2<sup>60</sup> = 1 152 921 504 606 846 76 b

1 zettabayt (Zb) 1024 eksabayt 2<sup>70</sup> = 1 180 591 620 717 411 303  
424 b

1 yottabayt (Yb) 1024 zettabayt 2<sup>80</sup> = 1 208 925 819 614 629 174  
706 176 b

### Axborotning semantik o'chovi

Axborot ma'nosining mazmuni yoki axborotning miqdorini semantik darajada o'chash uchun tezaurus o'chovidan foydalaniadi. Bu o'chov axborotning semantik xususiyatlarini foydalanuvchining kelgan habarni qabul qilish qobiliyati bilan bog'laydi. Buning uchun foydalanuvchi tezaurus tushunchasini ishlataladi.

**Tezaurus** – foydalanuvchi yoki tizim ega bo'lgan xabarlar to'plamidir. Semantik axborotning miqdorini nisbiy o'chovi sifatida mazmundorlik koeffisiyentini ishlatalish mumkin.

### 2.3. Axborot uzatish tezligi

Ma'lumki, axborot ustida uzoq masofaga uzatish amali bajarilishi mumkin. Axborotni kompyuter yordamida uzatish uchun esa sarflanadigan vaqt uning hajmiga bog'liq bo'ladi. Axborotning **vaqt birligi ichida** uzatilgan miqdori **axborotni uzatish tezligi** deb ataladi. Axborot uzatish tezligining birligi sifatida **bad** kiritilgan: 1 bod = 1 bit/1 sekund. Masalan, 120 megabayt axborot 8 minutda uzatilgan bo'sin. U holda axborot uzatish tezligini quyidagicha hisoblash mumkin:

120 MB/8 minut = 122880 KB/8 minut = 15360 KB/minut = 15728640 bayt/minut = 262144 bayt/sekund = 2097152 bod.

Hozirgi kunda axborot uzatish tezligining birliklari sifatida quyidagilar ishlataladi:

Kilobayt/sekund, Kilobit/sekund, Megabit/sekund.

- Axborot o'chovlari haqida ma'lumot bering
- Axborotning sintaktik o'chovi haqida ma'lumot bering
- Axborotning semantik o'chovi haqida ma'lumot bering
- Tezaums qanday o'chov birligi
- 1024 bit necha bayt?
- Axborot uzatish tezligi nima?

## III-BOB. SANOQ SISTEMALARI. SANOQ SISTEMALARI USTIDA AMALLAR

### 3.1. Sanoq sistemalari. O'nlik sanoq sistemalari

Odamlar o'rtaida muomala vositasi bo'mish til kabi sonarning ham o'z tili mavjud bo'lib, u ham o'z alifbosiga ega. Bu alifbo raqamlar va sonlarni ifodalash uchun qo'llaniladigan belgilardan iboratdir. Masalan, kundalik hayotimizda qo'llanadigan arab raqamlari  $1, 2, \dots, 9$ , 0 yoki rim raqamlari I, II, V, X, L, C, M, H, .. „ sonlar alifbosining elementlari hisoblanadi. Turli davrlarda turli xalqlar, qabilalar raqamlar va sonlarni ifodalashda turlisha belgilardan foydalanganlar. Masalan, qadingi Misrda raqam va sonlarni ifodalashda quyidagi belgilardan foydalaniilgan(3.1-rasm).

$\begin{smallmatrix} 1 & 0 & 1 & 2 & 3 & 4 & 5 & 6 & 7 & 8 & 9 \\ \hline 1 & 2 & 3 & 4 & 5 & 6 & 7 & 8 & 9 \end{smallmatrix}$	$\begin{smallmatrix} \wedge & \bar{\wedge} & \bar{\wedge} & \geq & \neq & \leq & \neq & \leq, \geq \\ 10 & 20 & 30 & 40 & 50 & 60 & 70 & 80 & 90 \end{smallmatrix}$
---	---

### 3.1-rasm. Misrda raqam va sonlarni ifodalash


Ishchi sanoq sistemalarini tanlash, aniqlash, operatsiyalarni bajarish tartibi va sonlarni mashina xotirasida tasvirlash — EXMning arifmetik asosini tashkil etadi.

Demak, sanoq sistemalari va ular orasidagi bog'lanishlarni bilish o'ta muximdir.


Ma'lumki, harflardan iborat alifboni qo'llashda bir qancha qonun va qoidalarga amal qilinadi. Sonli alifboldagi belgilardan foydalanishda ham o'ziga xos qoidalardan foydalilanildi. Bu qoidalalar turli alifbolar uchun turlisha bo'sib, mazkur alifboning kelib chiqish tarixi bilan bog'liq. Misol uchun, o'z ichiga o'nta raqamni olganligi uchun bu alifbo o'zining barcha qoidalari bilan birgalikda o'n raqamli sanoq sistemasi yoki qisqacha o'nlik sanoq sistemasi deb ataladi. Sonlar sistemasiagi raqamlar soni shu sistemning asosi deb yuritiladi. Sonlar alifbosiga kiritilgan bir xonali belgilar raqamlar va ular yordamida hosil qilingan boshqa ko'p xonali

belgilar sonlar deb yuritiladi. Masalan, o'nluk sanoq sistemasida 5, 6, 8 – bu raqamlar, ammo, 568 – bu son. O'nluk sanoq sistemasida birliklar, yuzliklar, mingliklar va boshqalar har biri o'ntadan belgillardan iborat guruhlarga bo'lingan: 0, 1, ..., 9; 0 ta, 1 ta, ..., 9 ta 10; 0 ta, 1 ta, ..., 9 ta 100, ... . Boshqa asosli sanoq sistemalardagi belgilar shu sistema asosi nechaga teng bo'sa, shuncha belgillardan iborat guruhlarga ajratiladi.

O'nluk sanoq sistemasida raqamlar o'zi turgan o'rniغا (razryadiga) ko'ra turilicha miqdorni anglatadi. Masalan: a) 999: 9 (to'qqiz) – birlik; 90 (to'qson) – o'nluk; 900 (to'qiz yuz) – yuzlik; b) 199: 1 (bir) – birlik; 90 (to'qson) – o'nluk; 900 (to'qiz yuz) – yuzlik; 1 (ming) – minglik.



a)



b)

### 3.2-rasm. O'nluk sanoq sistemasida raqamlarning razryadlanishi

Shu bois ham bu sistema raqamlari o'z pozitsiyasi (turgan o'rniga bog'liq bo'lgan sistema deb ham yuritiladi).

Sanoq sistemalari shu xossasiga ko'ra raqamlarining pozitsiyasiga bog'liq bo'lgan va raqamlarining pozitsiyasiga bog'liq bo'lmagan sanoq sistemalariga (qisqacha pozitsiyali pozitsiyali bo'lmagan sanoq sistemalariga) bo'lindi.

Pozitsiyali bo'lmagan sanoq sistemasiga rim sanoq sistemasi misol bo'ladi. Sizga ma'lumki, pozitsiyali sanoq sistemasi bo'lgan o'nluk sanoq sistemasida arifmetik amallar bajarish juda qulay, lekin, pozitsiyali bo'lmagan sanoq sistemasi bo'lgan rim sanoq sistemasi arifmetik amallar bajarish juda murakkab. Shuning uchun ham ajodlarimiz raqamlar va sonlarni aniq bir shakllar tizimiga keltirish masalasiga katta e'tibor qaratganlar.

### 3.2. Pozitsiyali sanoq sistemalari

Pozitsiyali sanoq sistemalarida qo'llaniladigan qoidalar turilicha bo'lsada, ular bir xil tamoyil asosida qurilgan. Mazkur tamoyiliga ko'ra ixtiyoriy manfiy bo'lmagan N butun sonini p asosli sanoq sistemada quyidagicha ifodalash mumkin:

$$N = a_k p^k + a_{k-1} p^{k-1} + \dots + a_1 p^1 + a_0 p^0$$

$a_k, a_{k-1}, \dots, a_0$  – berilgan sonni tashkil etuvchi raqamlar (ularning qiymati p dan kichik);

$k$  – sondagi raqamlar sonidan bitta kam miqdor (chunki birinchi razryad 0 (nol) dan boshlangan).

Masalan, o'nluk sanoq sistemasidagi 98327 sonida 7 raqami birlikni, 2 raqami o'nlikni, 3 raqami yuzlikni, 8 raqami minglikni, 9 raqami o'n minglikni ifodalaydi. Yuqoridaqgi ifodaga ko'ra  $a_0 = 7$ ;  $a_1 = 2$ ;  $a_2 = 3$ ;  $a_3 = 8$ ;  $a_4 = 9$  va  $p = 10$ ,  $k = 4 = (5-1)$  bo'lib, berilgan son quyidagi shaklda bo'fadi:

$$98327 = 9*10^4 + 8*10^3 + 3*10^2 + 2*10^1 + 7*10^0$$

Pozitsiyali sanoq sistemasining yana bir qulayligi shundaki, unda katta sonlarni kam miqdordagi raqamlar bilan ifodalash mumkin. Pozitsiyali sanoq sistemalariga ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalari ham kiradi. Ikkilik sanoq sistemasida 2 ta raqam mavjud: 0 va 1. Sakkizlik sanoq sistemasida 8 ta raqam bor: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7. Sonlarni o'n oltilik sanoq sistemasida ifodalash uchun o'n oltita raqam: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B, C, D, E, F dan foydalaniladi. Bu yerda A, B, C, D, E, F raqamlarining qiymati mos ravishda o'nluk sanoq sistemasidagi 10, 11, 12, 13, 14, 15 sonlarining qiymatiga tengdir. Ular sonlardan farqlanishi uchun lotin harflari bilan belgilangan. Sakkizlik sanoq sistemasida 8 soni, o'n oltilik sanoq sistemasida 16 soni 10 ko'rinishda yoziladi. Sanoq sistemalari orasidagi bog'lanishlarni keltiramiz (3.1-jadval).

### 3.1-jadval. Sanoq sistemalari orasidagi bog'liqlik

O'n otililik	O'nlik	Sakkizlik	Ikkilik
0	0	0	0
1	1	1	1
2	2	2	10
3	3	3	11
4	4	4	100
5	5	5	101
6	6	6	110
7	7	7	111
8	8	10	1000
9	9	11	1001
A	10	12	1010
B	11	13	1011
C	12	14	1100
D	13	15	1101
E	14	16	1110
F	15	17	1111
10	16	20	10000

**1-qoida.** (O'nlik sanoq sistemasiidan 8 lik va 2 lik sanoq sistemasiga o'tish) O'nlik sanoq sistemasiagi son o'tkazilishi lozim bo'lgan sanoq sistemasining asosiga ketma-ket bolinadi va bu jarayon toki bo'ljinma bo'luvchidan kichik bo'lgunga qadar davom ettililadi va xosil qilingan qoldiq xadlar bolinmadan boshlab chapdan o'ngga qarab tartiblanadi. (4-topshiriqqa qarang).

**2-qoida.** (8 lik, 2 lik sanoq sistemasidan 10lik sanoq sistemasiga o'tish). Asos yoyish formulasidan

$$N = a_k p^k + a_{k-1} p^{k-1} + \dots + a_1 p^1 + a_0 p^0$$

foydalanib 8 lik, 2lik sanoq sistemasiidan 10lik sanoq sistemasiga o'tladi. P berilgan asosli sanoq sistemasi.

**1-topshiriq.** 64 va 586,14 sonini yoyilma shaklida yozing. Bajarish. (1) formuladan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} a) 64 &= 6 * 10^1 + 4 * 10^0 = 60 + 4; \\ b) 586,14 &= 5 * 10^2 + 8 * 10^1 + 6 * 10^0 + 1 * 10^{-1} + 4 * 10^2 \end{aligned}$$

**2-topshiriq.** Sakkizlik sanoq sistemasidiagi 256 sonini o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazing, ya'ni  $256[8] \rightarrow X_{[10]}$ . Bajarish. Ixtiyoriy asosli sonni o'nlik sanoq sistemaga o'tkazish formulasini (2) dan foydalanamiz:

$$256[8] = [(2*8+5)*8] + 6 = 168 + 6 = 174[10]$$

**3-topshiriq.** Ikkilik sanoq sistemasidiagi 1101 sonini o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazing, ya'ni

$$1101_{[2]} \rightarrow X_{[10]}$$

$$\text{Bajarilishi: } 1101_{[2]} = [(1*2+1)*2+0]*2+1 = 13_{[10]}$$

**4-topshiriq.** Berilgan o'nlik sanoq sistemasidiagi sonni ikkilik va sakkizlik sanoq sistemasidagi songa o'tkazing:

$$\begin{aligned} a) 17_{[10]} &\rightarrow X_{[2]} \\ b) 13_{[10]} &\rightarrow X_{[8]} \end{aligned}$$

**Bajarilish. 1-qoidadan foydalanamiz:**

### 3.3. Ikkilik sanoq sistemasida arifmetik amallar

$$\begin{array}{r} 1712 \\ \underline{-168} \\ \hline 0422 \\ \underline{-42} \\ \hline 0 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 138 \\ \underline{-81} \\ \hline 5 \end{array}$$

a)

b)

**Natija:**

a)  $17_{(10)} \rightarrow 10101_{(2)}$

b)  $13_{(10)} \rightarrow 15_{(8)}$

**5-topshiriq.** Berilgan sakkizlik sanoq sistemasida sonni ikkilik sanoq sistemasiga va aksincha, ikkilik sanoq sistemasida sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing:

a)  $46_{(8)} \rightarrow X_{(2)}$

b)  $1101_{(2)} \rightarrow X_{(8)}$

**Bajarish.** 3.1-jadvaddan foydalanamiz, ya'ni sakkizlik sanoq sistemasidagi 4 soniga ikkilik sistemada 100, 6 soniga esa 110 soni mos keladi (ba'zan u uchlik deb yuritiladi):



Kundalik hayotimizda ishlataladigan o'nlik sanoq sistemasidagi sonlar ustida arifmetik amallar bajarish usullarini bilamiz. Mazkur usullar boshqa barcha pozitsiyali sanoq sistemalari uchun ham o'rnilidir. O'nlik sanoq sistemasida qo'shish amalini ko'rsak, biz awval biriklarni, so'ng o'nliklarni, keyin yuzlilar va hokazolarni o'zaro qo'shib boramiz. Bu jarayon barcha pozitsiyali sanoq sistemalari uchun o'rni bo'lib, toki oxirgi qiymat bo'yicha eng katta razryadni qo'shishgacha davom etadi. Mazkur jarayonda shu narsani doim eslash kerakki, agar biror razryad sonlarini qo'shganimizda natija sanoq sistema asosi qiymatidan katta chiqsa, yig'indining sanoq sistema asosidan katta qismini keyingi razryadga o'tkazish kerak.

Masalan, o'nlik sanoq sistemasida:

$$\begin{array}{r} 193275_{10} \\ + 79538_{10} \\ \hline 274796_{10} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 44416 \\ 43227 \\ \hline 1216 \\ \boxed{c} \quad 11 \\ \boxed{a} \quad 1 \end{array}$$

Ma'lumki, ikkilik sanoq sistemasasi faqat ikkita: 0 va 1 raqamlaridan tashkil topgan. Shu sistemasda qo'shish, ayirish va ko'paytirish amallari quyidagicha bajariladi:

Qo'shish	Ayirish
$0 + 0 = 0$	$0 - 0 = 0$
$0 + 1 = 1$	$0 \cdot 0 = 0$
$1 + 0 = 1$	$0 \cdot 1 = 0$
$10 - 0 = 10$	$1 \cdot 0 = 0$
$1 + 1 = 10$	$1 \cdot 1 = 1$

Endi yuqoridagi jadvallar yordamida ikkilik sanoq sistemasidagi sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarishga doir misollar ko'ramiz.

Javob: 11011, 101

5-misol. 101 va 1101 sonlarini ko'paytirin

1-misol. 10011+11001

Yechish:

$$\begin{array}{r} + \\ \hline 10011 \\ 1001 \\ \hline 101100 \end{array}$$

Javob: 101100

2-misol. 1101101+1000101,001

Yechnish:

$\begin{array}{r} 1101101,001 \\ + 1000101,001 \\ \hline 10110010,010 \end{array}$

Javob: 10110010, 010

$$\begin{array}{r} -101010 \\ -10011 \\ \hline 10111 \end{array}$$

Javob: 1011

4-misol.

$$\begin{array}{r} -110011,010 \\ 10111,101 \\ \hline 11011,101 \end{array}$$

Sonalarni o'n oltiuk sanoq sistemasida ijodalash uchun o'n oltiuk raqam: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B, C, D, E, F dan foydalamiladi. Bu yerda A, B, C, D, E, F raqamlarining qiymati mos ravishda o'nliz sanoq sistemasidagi 10, 11, 12, 13, 14, 15 sonlarining qiymatiga tengdir. Ular sonlardan farqlanishi uchun lotin harflari bilan belgilangan. Sakkizlik sanoq sistemasida **8** soni, o'n oltiuk sanoq sistemasida **16** soni **10** ko'rinishda yoziladi.

O'n oltilik sanoq sistemasi uchun raqamlar to'plami va ularning miqdoriy ekvivalentlari quyidagi 3.2-jadvalda keltirilgan. Sanoq siztemasi asosi p=16.

### 3.4. Ün oltılik sanoq sistemasi va unda amallar bajarish

O'n oltilik sanoq sistemasidagi raqamlar	O'nlilik sanoq sistemasidagi miqdoriy
0	0
1	1
2	2
3	3
4	4
5	5
6	6

### 3.2-jadval. 16 lik sanoq sistemasi jadvali



➤ 16 llik sanoq sistemasiida bo'lish amali

$$\begin{array}{r} - 748 \\ \underline{- 4} \quad | 4 \\ - 34 \\ \underline{- 34} \\ - 8 \\ \underline{- 8} \\ 0 \end{array}$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Sanoq sistemasi nima?
2. Qanday sanoq sistemalarini bilasiz?
3. O'nlik sanoq sistemasiidan 2lik va 8lik sanoq sistemalariga o'tish qoidasini aytib o'ting.
4. Sakdizlik sanoq sistemasiidan o'nlik sanoq sistemasiiga o'tish qoidasini aytib bering.

## IV-BOB. AXBOROTLARNI KODLASH VA UNING TURLARI

### 4.1. Axborotlarni shiflash va deshiflash

Axborotning maxfiyligini saqlash maqsadida uni kodlash **shifflash**, uni qayta dastlabki holatiga keltirish jarayoni esa **deshifflash** (qayta kodlash) deb ataladi. Shifflash usullari bilan shug'ullanuvchi maxsus ilmiy yo'nalishiga **kriptografiya** deyiladi.

"**Kriptografiya**" atamasi dastlab yashirish, yozuvni berkitib qo'ymoq ma'nosini bildirgan. Hozirgi vaqtida kriptografiya deganda har qanday shakldagi, ya'ni diskda saqlanadigan sonlar ko'rinishida yoki kompyuter tarmoqlarida uzatiladigan xabarlar ko'rinishidagi axborotni yashirish tushuniladi. Kriptografiyanı raqamlar bilan kodlanishi mumkin bo'lgan har qanday axborotga nisbatan qo'llash mumkin. Maxfiylikni ta'minlashga qaratilgan kriptografiya kengroq qo'llanilish doirasiga ega. Aniqroq aytganda, kriptografiyada qo'llaniladigan usullarning o'zi axborotni himoyalash bilan bog'liq bo'lgan ko'p jarayonlarda ishlatalishi mumkin.

Kriptografiya axborotni ruxsatsiz kirishdan himoyalab, uning maxfiyligini ta'minlaydi. Masalan, to'lov varaqlarini elektron pochta orqali uzarganda, u o'zgartirilishi yoki soxta yozuvlar qo'shilishi mumkin. Bunday hollarda axborotning yaxlitligini ta'minlash zaruriyat paydo bo'ladi. Umuman olganda, kompyuter tarmog'iga

ruxsatsiz kirishning mutlaqo oldini olish mumkin emas, lekin ularni aniqlash mumkin. Axborotning yaxlitligini tekshirishning bunday jarayoni, ko'p hollarda, axborotning haqiqiyligini ta'minlash deyiladi. Kriptografiya yordamida axborottarning haqiqiyligini ta'minlashi mumkin. Nafaqat axborotning kompyuter tarmog'idan ma'nosi buzilmasdan kelganligini bilish, balki uning muallifdan kelganligiga ishonch hosil qilish juda muhim. Axborotni uzzatuwchi shaxslarning haqiqiyligini tasdiqlovchi turli usullar ma'lum. Eng universal protsedura parollar bilan himoyalashdir, lekin bu juda samarali bo'lmagan protsedura. Chunki parolini qo'nga kiritgan har qanday shaxs axborotdan foydalanishi mumkin. Agar ehtiyyotkorlik choralariga riosa qilinsa, u holda parollarning samaradorligini oshirish mumkin. Lekin kriptografiya bundan kuchiyoq, u parolni uzuksiz o'zgartirish imkonini beradigan protseduralarni ham ta'minlaydi.

Kriptografiyada uzatiladigan axborotning ma'nosini yashirish uchun ikki xil o'zgartirishlar qo'llaniladi: kodlashtirish va shifrlash. Kodlashtirish uchun tez-tez ishlataladigan iboralar to'plamini o'z ichiga oluvchi kitob yoki jadvallardan foydalaniladi. Axborotni kodlash uchun xuddi shunday kitob yoki jadval talab qilinadi. Kodlashtiruvchi kitob yoki jadval ixtiyoriy kriptografik o'zgartirishga misol bo'ldi. Kodlashtirishning axborot texnologiyasiga mos talablar - qatorli ma'lumotlarni sonli ma'lumotlarga aylantirish va aksinchalik o'zgartirishlarni bajarla bilish. Kriptografik o'zgartirishning ikkinchi turi shifrlash. U o'z ichiga boshlang'ich matn belgilarini anglab olish mumkin bo'lmagan shaklga o'zgartirish algoritmlarini qamrab oladi. O'zgartirishlarning bu turi axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalariga mos keladi. Bu yerda algoritmini himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptografik kaitni qo'llab, shifrlash algoritmining o'zida himoyalashga bo'lgan talablarini kamaytirish mumkin. Endi himoyalash ob'ehti sifatida faqat kait xizmat qiladi. Agar kaitdan nusxa olingan bo'sha, uni almashtirish mumkin va bu kodlashtiruvchi kitob yoki jadvalni almashtirishdan yengildir. Shuning uchun ham kodlashtirish emas, balki shifrlash axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarida keng ko'landa qo'llanilmoqda.

**Shifrlash** – ochiq matn deb ataluvchi dastlabki matni shifrlangan matn holatiga etkazish jarayoni.

**Deshifrlash** – shifrlashga teskari bo'lgan jarayon, yahni kaitit yordamida shifrlangan matni dastlabki matn holatiga etkazish.

**Kalit** – bevosita dastlabki matni shifrlash va deshifrlash uchun zarur bo'lgan ma'lumot.

Kriptografiyada axborotlarni himoyalash uchun juda ko'plab usulbar qo'llanilgan. Ulardan biri almashtirish shifrlarida qoida asosida almashtiriladi. O'rinni hisoblanadi.

**O'rın almashtirish shifrlari**. O'rın almashtirish shifrlarida shifrlanadigan matn ramzları shu matn qismi chegarasida aniq qoida asosida almashtiriladi. O'rinni hisoblanadi.

Almashtirish shifrlari eng soddha hisoblanadi va eng qadimiy shifrlardir. O'rın almashtirish usullarining mohiyati bir alfavitda yozilgan axborot simvollarini boshqa alfavit simvollarini bilan ma'lum qoida bo'yicha almashtirishdan iboradir. Eng soddha usul sifatida to'g'ridan to'g'ri o'rın almashtirishni ko'rsatish mumkin. Dastlabki axborot yoziluvchi A0 alfavitning si simvollariga shifrlovchi A1 alfavitning si1 simvollarini mos qo'yiladi. Oddiy holda ikkala alfavit ham bir xil simvollar to'plamiga ega bo'lsidi mumkin. Ikkala alfavitdagi simvollar o'rtasidagi moslik ma'lum algoritm bo'yicha K simvollar uzunligiga ega bo'lgan dastlabki matn T0 simvollarining raqamli ekvivalentlarini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Eng qadimgi o'rın almashtirish usullari sifatida quyidagi usullarni ketirish mumkin: **Tsezar** usuli, tayanch so'zi **Tsezar** usuli, Affin tizimidagi **Tsezar** usuli va boshqalar.

**Tsezar** usuli. Dastlabki tizimlashgan kriptografik usulbar eramizdan oldingi 50-yillarda rimplik imperator Gay Yuliy Tsezarining ish yuritish yozishmalarida uchraydi. U biror ma'lumotni maxfiy holda biror kishiga yetkazmoqchi bo'sa, alfavitning birinchi harfini alfavitning to'rinchi harfi bilan, ikkinchisi beshinchisi bilan va hokazo shu tartibda almashtirib matning asli holatidan shifrlangan matn holatiga o'tkazgan.

**Keyinchalik Tsezar** usulida almashtiruvchi harflar to'rinchisiga emas, balki kelishilgan k siljish bilan aniqlangan. Shifrlashda matning har bir harfi boshqa harf bilan quyidagi qoida

asosida almashtiriladi. Bu erda  $K$  – butun son hisoblanib uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K=Kn \text{mod}(m), m -\text{alfavit soni.}$$

Aniqroq qilib aytganda: Tsezar usuli orqali shifflashing matematik ifodasi quyidagicha:

$$C_{k(j)} = (j+k) \text{mod } n$$

Bu erda  $j$  – almashtirilayotgan belgini alfavitdagi o'rni,  $k$  – sijish qadami,  $n$  alfavitdagi harflar soni.

$T$  sezar usuli orqali deshifflashing matematik ifodasi quyidagicha:  $C_k(j) = Sn - k = (j+n-k) \text{mod } n$

Bu erda  $j$  – almashtirilayotgan belgini alfavitdagi o'rni,  $k$  – sijish qadami,  $n$

- alfavitdagi harflar soni. Yuliy Tsezar bevosita  $k = 3$  bo'lganda ushbu usuldan foydalangan.  $K=3$  bo'lganda va alifbodagi harflar 26 ta bo'lganda quyidagi jadval hosil qilinadi(4.1-jadval).

#### 4.1-jadval. O'r'in almashtirish shifrlari jadvali

A	D
B	E
C	F
D	G
E	H
F	I
G	J
H	K
I	L
J	M
K	N
L	O
M	P
N	Q
O	R
P	S
Q	T
R	U
S	V

**Misol.** Matn sifatida KRIPTOGRAFIYA so'zini oladigan bo'lsak, Tsezar usuli natijasida quyidagi shifrlangan yozuv hosil bo'лади: NULSWRJUDILBD

Endi matn sifatida KOMPUTER so'zini oladigan bo'lsak, Tsezar usuli natijasida quyidagi shifrlangan yozuv hosil bo'лади:

#### 4.2. Axborotlarni kodlash

Biz atrof-muhiddan axborotni qabul qilar ekammiz, ular bizga nur, tovush, hid kabilar sifatida yetib kelishi mumkin. Yoki boshhqacha ko'rinishlarda: so'z, belgi, qo'l harakatlari, imo-ishora bo'lishi mumkin.

**Ayrim axborotni kodlangan ko'rinishda uchratish mumkin.**

**Masalan:**

- Yo'l harakati qoidalari **rasm** va **shakkllarda** ifodalansada, biz ular orqali qanday harakat qilish kerakligini anglab yetamiz.
- Qo'l harakatlari orqali esa eshitib bo'lmaydigan axborotni so'zsiz tushunib olamiz

➤ Yuz ifodalari orqali suhbatsoshimizning kayfiyatini, ichki kechimnalari bilib olishimiz mumkin.  
XIX asming boshanishida Massachusetts shtatidan bo'lgan amerikalik rassom Samuel Finli Briz Morze telegraf yordamida uzoq masofalarga ma'lumot uzatish usulini o'ylab topgan. Bu usul maxsus alifboden tashkil topgan bo'lib, unda harflarni ifodalash uchun nuqta (•) va tire (—) belgilaring turli kombinatsiyalari xizmat qilgan. Nuqta qisqa, tire esa uzun signal (tovush)ni bildirgan(4.1-rasm).

T	W
U	X
V	Y
W	Z
X	A
Y	B
Z	C

A -..	B -... ..	C -... ..	D -.. ..	E -.	F -.. ..
H -..	I -..	J -... ..	K -.. ..	L -... ..	M -..
N -..	O -... ..	P -... ..	Q -... ..	R -.. ..	S -..
T -	U -..	V -.. ..	W -.. ..	X -.. ..	Y -.. ..
Z -... ..	1 -... ..	2 -... ..	3 -... ..	4 -... ..	5 -... ..
6 -... ..	7 -... ..	8 -... ..	9 -... ..	0 -... ..	

#### 4.1-rasm. Morze alifbosи

Mana shunday usullar orqali axborotning bir ko'inishdan ikkinchi ko'inishga o'tkazilish jarayoni **kodlash** deb ataladi.

**Kod - axborotni ifodalashda shartli belgililar tizimi.**

**Kodlash** — maxsus belgililar yordamida axborotni bir ko'inishdan boshqa qulayroq ko'inishga o'tkazish jarayoni.  
**Dekodlash** — kodlangan axborotning mazmunini qayta tiklash jarayoni.

**Kodlashning 3 ta asosiy usuli mavjud:**

- raqamlı kodlash usuli
- belgili kodlash usuli
- grafik kodlash usuli

qizil	yashil	ko'k	nomi	rang
0	0	0	qora	
0	1	0	yashil	
0	0	1	ko'k	
1	0	0	qizil	
0	1	1	moviy	
1	1	0	sariq	
1	0	1	malina rang	
1	1	1	oq	

#### 4.3-rasm. Belgili kodlash

##### 4.4-rasm. Grafik kodlash

Har bir axborot bir necha xil usulda kodlanishi mumkin. Kompyuterlarning vujudga kelishi bilan inson va butun insoniyat ishlatalidigan barcha ko'inishdagi axborotlarni kodlash zaruriyati paydo bo'ldi. Ammo axborotlarni kodlash muammosini yechishni insoniyat kompyuterlar paydo bo'lishidan ancha oldin boshlagandi.

Axborot hech qachon soz holatda bo'magan, u har doim qandaydir kodlangan ko'inishda bo'lgan. Ikkilik kodlash-axborotni ifodalashning keng tarqalgan usullaridan biridir. Hisoblash mashinalarida, robotlarda, raqamlı dastur boshqaruvidagi stanoklarda umumiy qonundajidek, hamma informatsiya, apparat bajaradigan barcha ishlar, ikkilik alfabit so'zları ko'inishida kodlanadi.

#### 4.3. Axborotni ikkilik sanoq sistemasida kodlash

■ A	■ J	■ R	■ O'
■ B	■ K	■ S	■ G'
■ D	■ L	■ T	■ Sh
■ E	■ M	■ U	■ Ch
■ F	■ N	■ V	■ ng
■ G	■ O	■ +	■ =
■ H	■ P	■ X	■ □
■ I	■ Q	■ Y	■ △
■ K	■ R	■ Z	■ ▲

Kompyuter raqamlarining o'zini emas, balki shu raqamlarni ifodalovchi signalarni farqlaydi. Bunda raqamlar signalning ikki qymati bilan (magnitlangan yoki magnitlanmagan, ulangan yoki ulamagan, ha yoki yo'q va hokazo...) ifodalanadi. Bu holatning birinchisini 0 raqami bilan, ikkinchisini esa 1 raqami bilan belgilash qabul qilingan bo'shib, axborotni ikkita belgi yordamida kodlash nomini olgan. Bu usul qisqacha qilib, ikkilik kodlash deb ham ataladi. Bunda har bir raqam va alfobodagi belgi jahon andozalaridagi kodlash jadvali – **ASCII** (American Standard Code for Information Interchange) jadvali yordamida ikkilik belgilar ketma – ketligida ifodalanadi.

8 ta 0 va birlaning turli kombinatsiyasidan foydalanib, turli hildagi belgilarni kodlashimiz mumkin. 0 va 1 dan iborat raqamlar yordamida ularni sakkistadan ajrassak, bu kombinatsiyalar soni 2<sup>8</sup> = 256 bo'idi va ular yordamida 256 ta harf, raqamlar va turli boshqa belgilarni kodlash imkoniyati tug'iladi. Bitta belgini kompyuterlarda kodlash uchun 8 bit, ya'ni 1 bayt joy yetadi. Ko'rinish turibdi ki, 1 bayt joydan ikkilik kod orqali 256 ta belgini kodlash imkoniyati bor.

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
1	0	▼	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
2	0	▲	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
3	0	▼	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2
4	0	▲	1	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3
5	0	▼	1	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4
6	0	▲	1	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5
7	0	▼	1	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6	6
8	0	▲	1	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7
9	0	▼	1	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8
A	0	▲	1	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9	9
B	0	▼	1	J	Z	J	Z	K	J	Z	K	J	Z	K	J
C	0	▲	1	K	L	K	L	M	K	L	M	K	L	M	N
D	0	▼	1	L	M	L	M	N	L	M	N	L	M	N	O
E	0	▲	1	M	N	M	N	O	M	N	O	M	N	O	P
F	0	▼	1	N	O	N	O	P	N	O	P	N	O	P	Q

#### 4.5-rasm. ASCII jadvali

LOLA so'zini quyidagicha kodlash mumkin.

01001100 01001111 01001100 01000001

Buyruqlarni yoki turli boshqa turdag'i axborotlarni kodlash uchun shu tartibda yondoshiladi. Biroq turli rusumdag'i kompyuterlar uchun bu yondoshuv turliha bo'lishi mumkin. Bu texnikaning xususiyatiga bog'liq bo'lgan holatadir.

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. Axborotlar ikkilik sanoq sistemasida qanday kodlanadi?
2. Axborot miqdori va uzatish tezligi nima?
3. Axborotlarni kodlash turlari va farqi?
4. Kodlash nima?
5. Shifrlash va deshifrlash nima?
6. O'rin almashirish usulida shifrlashni tushuntirib bering?

Ya'ni ASCII jadvalida(4.5-rasm) keltiligandek A belgisini o'nta otilikda 14 ga teng (belgi turgan katakdakesilgan satr va ustun raqamlari qo'shiladi) 14 – 41 tetrada asosida 1=0001; 4 = 0100. Demak A belgisini kompyuterde kodlanishi 01000001 bo'ladi.

## V-BOB. MANTIQIY AMALLAR VA MANTIQIY ELEMENTLAR

### 5.1. Mantiq asoslari

Mantiq o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiq masalalari dastlab Parmenid, eleylik Zeno va Geraklit ta'lilotida u yoki bu darajada korib chiqilgan. Mantiqa oid fikrlar, tafakkur shakllari va usullari to'g'risidagi dastlabki ta'lilotlar qadimgi Sharq mamlakatlari, xususan, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan bo'lsa da, qadimda mantiq falsafaning tarkibida bo'lgan, mustaqil fan sifatida shakllammagan. Qadimgi Yunon mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'lilotlar zamonaviy mantiqning asosi hisoblanadi.



Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi miloddan awvalgi IV asrda yashab o'tgan buyuk yunon olimi Arastu (Aristotel) ismi bilan bog'liq. U bиринчи bo'lib mantiq ilmi o'rGANADIGAN masalalar doirasini aniqladi, mantiqqa "ma'lum bilmlardan nomalum bilmlarni aniqlovchi", "chin fikri xato fikrdan ajratuvchi" fan sifatida ta'rif berdi. Olim bиринчи marta mantiqiy tafakkur shakllarini uning mazmunidan ajratib, mantiq va matematikani uyg'unlashтиrishga harakat qildi, dalillar nazariyasiga asos soldi. Formal mantiq ilmining asoslari hamda mantiq jarayonini turli matematik belgilar bilan ifodalashga intilish ham Arastu asarlariда ko'zga tashilanadi. Markaziy osiyolik alloma Abu Nasr Forobiy Arastuning umumiy formal mantiqqa oid qarashlariga tayangan holda mantiq fanini shakllantirsa olgan.

Kundalik hayotda mantiq atamasi "fikrlar mantig'i", "gap mantig'i", "xatti-harakat mantig'i", "narsalar mantig'i", "voqealar mantig'i" kabi jumalarda fikri ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Mantiq trafakkurning namoyon bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rasisidagi aloqadorlikni ko'ssatdigan qonun-qoidalari yig'indisini o'rGANADI. Hozirda mantiqning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo'nalishlari mavjud. Mantiq (logika) atamasi qadimgi yunoncha λογικος – "fikrlash ilmi" atamasiga mos keladi va "so'z", "fikr", "muhohaza", "nutq", "aql"

degan ma'nolarni anglatib, bilish jarayoni bilan uzziy bog'liqidir. Mantiqning o'rganish obyektiini tafakkur tashkil etadi.

Formal mantiq statik voqealikga oid bo'lib, tafakkur strukturasini fikring aniq mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda o'rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoida va mantiqiy amallar yotadi.

Dialektik mantiq dinamik voqealikga oid bo'lib, tafakkurni uning mazmuni va shakli yaxlitligi hamda rivojlanishi orqali o'rganadi. Matematik mantiq tafakkurni matematik usullar yordamida taddiq etadi. U hozirgi zamон matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### TAFAKKUR SHAKLLARI

➤ Tushuncha – obyekt va hodisalarning asosiy xususiyatlari, umumiyligi va muhim belgilarni yaxlit holda ifodalovchi fikrlash shakli.

➤ Mulohaza – obyekt va hodisalarning belgilari, xususiyatlari va ular o'rtasidagi munosabatlari haqida tasdiqlangan yoki rad etilgan fikrlash shakli.

➤ Xulosa – tafakkurning bir yoki bir necha hukmlardan yangi hukm chiqarish mumkin bo'lgan asosiy mantiqiy shakli. Masalan, Alining yoshi Valining yoshidan katta. Ra'noning yoshi esa Valining yoshidan kichik. Xulosa Alining yoshi Ra'noning yoshidan katta.

Mantiqning boshlang'ich tushunchalaridan biri mulohaza yuritish mumkin bo'lgan darak gapni tushunamiz. So'roq va undov gapli ta'riflar ham mulohaza bo'la olmaydi. Masalan, "2 ga bo'linuvchi songa juft son deyiladi", degan ta'rif mulohaza bo'la olmaydi. Ammo "agar butun son 2 ga bo'linsa, u holda bu son juft son bo'ladi", degan darak gap mulohaza bo'ladi. Bu mulohaza – rost. Insonlar kundalik hayotda o'zaro muloqot qilish uchun turli mulohazalardan foydalananishadi. Ma'lumki, mulohaza – narsa yoki hodisalarning xususiyatini anglatuvchi darak gapdir. Boshqacha aytganda, mulohaza – rost yoki yolg'onligi haqida so'z yuritish mumkin bo'lgan darak gap. Mulohazalar narsa yoki obyektlarning xususiyatlarini, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni haqqoniy

(to'g'ri) aks ettirsa, rost, aksincha, haqiqatga zid, noto'g'ri bayon qilsa, yolg'on mulohaza bo'ladi. Har qanday mulohaza rost yoki yolg'on bo'ladi. Hech bir mulohaza bir vaqtning o'zida ham rost, ham yolg'on bo'la olmaydi. Masalan, "7 < 5", "A" – unli harf", "11 – tub son" mulohazalarining birinchisi – yolg'on, ikkinchisi va uchinchisi – rost mulohazalardir.

Mulohazaning qiymati deganda, biz uning rost yoki yolg'onligini tushunishimiz kerak. Har bir mulohaza faqat bitta: "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatga ega bo'ladi!

Mulohazalar sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Biror shart yoki usul bilan bog'lanmagan hamda faqat bir holatni ifodalovchi mulohazalar sodda mulohazalar deyiladi. Sodda mulohazalar ustida amallar bajarib, murakkab mulohazalarni hosil qilish mumkin. Odatda murakkab mulohazalar sodda mulohazalardan "VA", "YOKI" kabi bog'lovchilar, "EMAS" shaklidagi ko'makchilar yordamida tuziladi.

**Mantiqiy o'zgaruvchi** deganda, istagan mulohazani anglatuvchi, "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatni qabul qilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchilar tushuniladi. Quaylik uchun "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatlarni belgash usullarini keltirib o'tamiz(5.1-jadval):

Rost	R	Ha	True	T	1
Yolg'on	Y	Yo'q	False	F	0

**5.1-jadval.**

Mulohazalarni, odatda, lotin alifbosining bosh harflari (A, B, C, ... X, Y, Z) bilan belgilash qabul qilingan. Masalan: A = "Toshkent – go'zal shahar", B = "WWW – butun dunyo o'rgimchak tori". Bu misolda A va B mantiqiy o'zgaruvchilar orqali berilgan mulohazalar rost bo'lib, bu mulohazalarning qiymati 1 ga teng.

## 5.2. Mantiqiy amallar va ifodalar

Mantiqiy amallar mulohazalar mazmuni yoki hajmining o'zgarishiga hamda yangi mulohazalarni shakllantirishga olib keladi.

Mantiqiy ifodalar A, B, C, ... lotin harflari yordamida belgilangan mulohazalarni konyunksiya, dizyunksiya, inversiya, implikatsiya va ekvivalensiya kabi mantiqiy bog'lovchilar bilan ma'lum bir qoidaga ko'ra birlashtirish natijasida hosil qilinadi. Mantiqiy ifodalar unda ishtirok etgan o'zgaruvchilarining qiymatlariga bog'liq ravishda rost (mantiqiy 1) yoki yolg'on (mantiqiy 0) qiyatlardan birini qabul qilishi mumkin. Quyida sodda mulohazalar ustida bajarilishi mumkin bo'lgan ba'zi amallar bilan tanishamiz. Ikkita sodda mulohazaning "va" bog'lovchisi orqali bog'lanishidan hosil bo'lgan yangi mulohazaga sodda mulohazalar ko'paymasi deyiladi.

**1-ta'rif:** Ikkita A va B sodda mulohaza bir paytda rost bo'lgandagina rost bo'ladigan yangi (murakkab) mulohazani hosil qilish amali konyunksiya (lot. conjunctio – bog'layman) – mantiqiy ko'paytirish amali deb ataladi. Mantiqiy ko'paytirishni ifodalaydigan quyidagi jadvalga rostlik jadvali deyiladi:

A	B	A $\wedge$ B
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0

**5.2-jadval. Konyunksiya jadvali**

Quyidagi sodda mulohazalar berilgan bo'lsin: A = "Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi"; B = "Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo'llash imkonini bergen".

**Mantiqiy ko'paytmaning natijasi.** Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi va Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo'llash imkonini bergen.

**Natijaviy mulohazaning qiymati:** rost.

Agar ikkala boshlang'ich mulohaza bir vaqtning o'zida rost bo'sagina, "Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi va Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo'llash imkonini bergen", degan yangi mulohaza ham rost bo'ladi. Konyunksiya amali faqat ikkita sodda mulohazalar ustida emas, balki bir nechta mulohazalar ustida ham bajarilishi mumkin. Rostlik jadvaliga boshlang'ich mulohazalarning barcha mumkin bo'lgan qiyatlari (A va B ustunlarga) kiritiladi. Odatda,

mulohazalarning ikkilik sanoq sistemasidagi qiymatlari jadvalga o'sish (00, 01, 10, 11) tartibida joylashtiriladi. Oxirgi ustun tegishli operandlar (amallar bajariladigan ma'lumotlar elementi) uchun bajarilgan mantiqiy amal natijasini o'z ichiga oladi. Bu amalni **konyunksiya** (lot. conjunctio - bog'layman) deb ham atashadi. Mantiqiy ko'paytirish amali "A va B", "A and B", "A  $\wedge$  B", "A • B" kabi ko'rinishda yoziladi.

**2-ta'rif:** Ikkita A va B sodda mulohazaning kamida bittasi rost bo'lganda rost, qolgan holatlarda yolg'on bo'ladigan yangi (murakkab) mulohazani hosil qilish amali dizyunksiya (lot disjunctio - farqlayman, ajrataman) – mantiqiy qo'shish amali deb ataladi.

Mantiqiy qo'shish amaliga mos rostlik jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi(5.3-jadval):

A	B	$A \vee B$
1	1	1
1	0	1
0	1	1
0	0	0

### 5.3-jadval. Dizyunksiya jadvali

Quyidagi sodda mulohazalar berilgan bo'isin: A = "Mantiqda matematik belgilardan foydalanish g'oyasi Gotfrid Vilgelm Leybnisga tegishli"; B = "Leybnis binar arifmetikaning asoschisidir". Mantiqiy qo'shishning natijasi. Mantiqda matematik belgilardan foydalanish g'oyasi Gotfrid Vilgelm Leybnisga tegishli yoki Leybnis binar arifmetikaning asoschisidir. Natijaviy mulohazaning qiymati: yolg'on. Mantiqiy qo'shish amali "A yoki B", "A or B", "A V B", "A + B" kabi ko'rinishlarda yoziladi.

**3-ta'rif:** A mulohazani qiymati rost bo'lganda yolg'on, yolg'on bo'lganda rost qiymatga ozgartira oladigan amalg'a inversiya (lot. inversio - to'ntaraman) – mantiqiy inkor amali deyiladi.

Inkor amaliga mos rostlik jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi(5.4-jadval):

### 5.4-jadval. Inversiya jadvali

A	$\neg A$
1	0
0	1

Inkor amali har bir mulohazaning asl ma'nosiga qarana-qarshi bo'lgan yangi mulohazani hosil qiladi. Masalan, A = "Bizning uyimiz shahar markazida joylashgan" mulohazaning inkori  $\neg A$  = "Bizning uyimiz shahar markazida joylashgan emas" bo'ladi.

**4-ta'rif:** A mulohaza rost, B mulohaza yolg'on bo'lgandagina yolg'on, qolgan holatlarda rost bo'ladigan mulohazaga A hamda B mulohazalarning implikatsiyasi deyiladi.

"=>" belgi implikatsiya belgisi deb ataladi. A=>B mantiqiy ifoda

"Agar A bo'lsa, u holda B bo'ladi" yoki "A mulohazadan B mulohaza kelib chiqadi", degan ma'nolarni anglatadi. Implikatsiya amaliga mos rostlik jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi: Implikatsiya so'zi mahkam bog'layapman degan ma'noni anglatadi. Masalan: A = "Agar 72 soni 9 ga karrali bo'lsa, u holda bu son 3 ga ham karrali bo'ladi".

A mulohazaning implikatsiyasi rost, chunki murakkab mulohaza tarkibidagi sodda mulohazalarning ikkalasi ham rost.

B = "Agar -3<-1 bo'lsa, u holda 9>8 bo'ladi". B mulohazanining implikatsiyasi yolg'on, chunki -3<-1 shart — rost, 9>8 esa — yolg'on. A=>B, A→B ko'rinishlardan biri orqali A mulohazanining implikatsiyasi belgilanadi.

**5-ta'rif:** A va B mulohazalar bir vaqtida rost yoki bir vaqtida yolg'on bo'lganda rost bo'ladigan mulohazaga A va B mulohazalarning ekvivalensiyasi deyiladi.

"=>" belgi ekvivalensiya belgisi deb ataladi. A=>B yozuv "A mulohazadan B mulohaza va B mulohazadan A mulohaza kelib chiqadi" yoki "A bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, agar B bo'lsa" yoki "A ekvivalent B" deb o'qiladi. Ekvivalensiya amaliga mos rostlik jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi(5.5-jadval):

### 5.5-jadval. Ekvivalensiya jadvali

A	B	$A \Leftrightarrow B$
0	0	1
0	1	0
1	0	0
1	1	1

Masalan, A = "9'72 soni 9 ga karrali", B = "9'72 soni raqamlarining yig'indisi 9 ga karrali" mulohazalari berilgan bo'lsin. U holda A va B mulohazalarning ekvivalensiyasi "9'72 soni 9 ga karrali bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, qachon bu son raqamlarining yig'indisi 9 ga karrali bo'sa" kabi bo'ladi. Bu ekvivalensiya - rost. A  $\Leftrightarrow$  B, A  $\Leftrightarrow$  B ko'rinishlardan biri orqali A mulohazaning ekvivalensiyasi belgilanadi.

Ixtiyoriy murakkab mulohazani mantiqiy ifoda ko'rinishida ham yozish mumkin. Murakkab mantiqiy ifodalar mantiqiy amallar yordamida bog'langan bir yoki bir necha oddiy (murakkab) mantiqiy ifodalardan tashkil topadi. Bu mantiqiy ifodalar mantiqiy o'zgaruvchilar, munosabatlar, mantiqiy amallar va qavslarni o'z ichinga oladi. Masalan,  $(A \vee \neg B) \& (C \Leftrightarrow \neg D)$ .

Mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallar quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda, amallar chapdan o'ngga qarab tartib bilan bajariladi. Ifodada qavslar ishtirok eganda, dastlab qavslar ichidagi amallar bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallar birinchi bajariladi. Mantiqiy amallarga misollar keltiramiz.

**1-misol.** A mulohaza yolg'on qiymat qabul qilsa, "(A EMAS) yoki A" mulohazaming qiymatini aniqlang.

**Yechish.** A "yolg'on" qiymat qabul qilganligi uchun (A EMAS) "rost" qiymatga ega bo'ladi. U holda "rost" va "yolg'on" qiymatlarining yig'indisidan ("YOKI" amali) "rost" natijaga ega bo'lamiz. Demak, javob "rost" ekan. Javob: rost.

**2-misol.**  $x = 1,6$  va  $y = 8,7$ , A = "rost" va B = "yolg'on" bo'lganda,  $(AV \neg B) \& (x > y)$  mantiqiy ifodaning qiymatini hisoblang.

**Yechish.** B mulohazaning qiymati "yolg'on" bo'ganligidan  $\neg B$  mulohazaning qiymati "rost" bo'ladi. A mulohazaming qiymati "rost" va  $\neg B$  mulohazaning qiymati "rost" bo'ganligidan,  $(AV \neg B)$  mulohaza qiymati "rost" bo'ladi.  $(1,6 > 8,7)$  munosabat noto'g'ri ekanligidan bu mulohaza "yolg'on" bo'ladi. U holda  $(AV \neg B) \& (x > y)$  mantiqiy ifoda qiymati "yolg'on" bo'ladi. **Javob: yolg'on.**

3-misol. Quyidagi mulohazani mantiqiy ifoda ko'rinishida yozing: "Agar men olma yoki o'rik sotib olsam, u holda mevali pirog tayyorlayman".

**Yechish.** Awal murakkab mulohaza tarkibidan sodda mulohazalarni ajratib olamiz: A = "Olma sotib olsam", B = "O'rik sotib olsam", C = "Mevali pirog tayyorlayman". U holda "Agar men olma yoki o'rik sotib olsam, u holda mevali pirog tayyorlayman" murakkab mulohazani  $(AVB) \Rightarrow C$  ko'rinishidagi mantiqiy ifoda shaklida yozish mumkin.

### 5.3. Mantiqiy ifodalarining rostlik jadvalini tuzish

Formal, ya'ni formulalarga tayangan tilda mantiqiy bog'lovchilar deb ataluvchi maxsus belgilari ( $\&$ ,  $\vee$ ,  $\neg$ ,  $\Rightarrow$ ,  $\Leftrightarrow$ ) dan foydalananadi. Biz bu amallar, ularning yozilishi hamda o'qilishi bilan awvalgi darslarda tanishib chiqqan edik.

Mantiqiy formulalar rostlik jadvalari yordamida izohlanadi. Bunday jadvallar mantiqiy bog'lovchi orqali tuzilgan murakkab mulohazaning rost( $\neg$ ) yoki yolg'on( $\neg$ )ligini tashkil etuvchi mulohazalarning rostligiga qarab aniqlanadi. Mantiqiy amallarning rostlik jadvalaridan foydalanib, murakkabroq mulohazalar uchun rostlik jadvalini tuzish mumkin. Rostlik jadvalini tuzishda amallarning bajarilish tartibiga rioya qilish shart. Mulohazalar to'plamida aval inkor amali, keyin konyunksiya, dizunksiya, implikatsiya va niroyat ekvivalensiya amallari bajariladi. Agar inkor amali qavslardan tashqarida bo'sa, u holda dastlab qavs ichidagi amallar bajariladi. Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda, amallar chapdan o'ngga tomon tartib bilan bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallar birinchi bajariladi.

Mulohazalar to'plami va unda bajariladigan barcha  $\&$ ,  $\vee$ ,  $\neg$ ,  $\Rightarrow$ ,  $\Leftrightarrow$  amallar birlgilida mulohazalar algebrasi deb yuritiladi. A, B, C,... mulohazalarni mantiqiy bog'lovchilar bilan ma'lum tartibda

birlashtirib hosil qilingan murakkab mulohazaga mantiqiy formula deyladi.

*Mantiqiy ifodaning rostlik jadvalini tuzish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz:*

1. Mantiqiy ifoda tarkibida o'zgaruvchilar soni n ni aniqlash:

AVA&B.

O'zgaruvchilar lotin alifbosи harflari bilan belgilanishini bilamiz.  $n = 2$

2. Mantiqiy amallar soni k ni aniqlash:

Qatnashgan mantiqiy amallar: V & K = 2.

3. Qavslar va amallarning bajarilish ketma-ketligini hisobga olgan holda mantiqiy amallarning bajarilish tartibini aniqlash:

1) A&B; 2) AV(A&B).

4. Jadvaldagi ustunlar sonini aniqlash. O'zgaruvchilar soniga amallar soni qo'shiladi:  $c = n + k$ :  
 $2 + 2 = 4$ .

5. O'zgaruvchilar va 3-banda aniqlangan amallar bajarilish ketmakketligiga muvofiq jadvalning 1-satri (sarlavha satri) to'ldiriladi:

A	B	A & B	A ∨ A & B
0	0	0	0
0	1	0	0
1	0	0	1
1	1	1	1

6. Jadval satrleri soni  $r = 2n$  formula yordamida aniqlanadi ( $5 \cdot$  bandagi sarlavha satri hisobga olinmaydi):

$r = 22 = 4$ .

Kirish o'zgaruvchilari to'plamini 0 dan  $22 - 1 = 3$  gacha. Ikkilik raqamlar: 00, 01, 10, 11.

A	B	A & B	A ∨ A & B
0	0	0	0
0	1	0	0
1	0	0	1
1	1	1	1

7. O'zgaruvchilar to'plamining n-razryadli ikkilik raqamlari yoziladi:

Diskret qayta ishllovchi qurilma ikkilik signallarni qayta ishlaganidan keyin biror mantiqiy amalning qiymatini chiqarsa, u mantiqiy element deb ataladi. Bunday qiyamatlar (signalalar)ni qayta ishllovchi qurilmalarga esa diskret qurilmalar deyiladi.  
Mantiqiy elementlar kompyuterning tarkibiy qismi bo'lib, ikkilik o'zgaruvchilar ustida muayyan mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljalangan elementlar hisoblanadi. Zamonaivy raqamli texnologiyalarning barcha hisoblash qurilmalari (kompyuter, mobil qurilmalar) mantiqiy elementlarga asoslangan. Kompyuterning har qanday mantiqiy amali asosiy mantiqiy elementlar yordamida bajariladi. Har bir mantiqiy element bir yoki bir necha mantiqiy amalning bajarilishini ta'minlaydi. Quyida eng sodda va keng tarqalgan mantiqiy elementlar bilan tanishamiz. Elementlarning o'zi oddiy elektr sxemalardan tuziladi. Bunda sxemaning kirish qismiga kelgan signalarga argument deyilsa, chiqishdagi signallar esa argumentning funksiyasi bo'лади.

8. Kiruvchi ma'lumotlarga mos jadval ustunlarida belgilangan mantiqiy amallar ketma-ketligini bajarish va jadvalni to'dirish. Ya ni mantiqiy amallarga qarab, kirish ma'lumotlariga mos mantiqiy amallarni bajarish:

A	B	A & B	A ∨ A & B
0	0	0	0
0	1	0	0
1	0	0	1
1	1	1	1

#### 5.4. Mantiqiy sxemalar

Mantiq algebrasi matematikaning bir bo'limi hisoblanib, avtomatik qurilmalarni loyihalashtirishda, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining apparatlari va dasturiy vositalarini ishlab chiqishda muhim o'r'in tutadi. Ma'lumki, har qanday axborot diskret ko'rinishida, ya'ni alohida qiyamatlarning fiksirlangan (belgilangan) to'plami ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Diskret qayta ishllovchi qurilma ikkilik signallarni qayta ishlaganidan keyin biror mantiqiy amalning qiymatini chiqarsa, u mantiqiy element deb ataladi. Bunday qiyamatlar (signalalar)ni qayta ishllovchi qurilmalarga esa diskret qurilmalar deyiladi.

Mantiqiy elementlar kompyuterning tarkibiy qismi bo'lib, ikkilik o'zgaruvchilar ustida muayyan mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljalangan elementlar hisoblanadi. Zamonaivy raqamli texnologiyalarning barcha hisoblash qurilmalari (kompyuter, mobil qurilmalar) mantiqiy elementlarga asoslangan. Kompyuterning har qanday mantiqiy amali asosiy mantiqiy elementlar yordamida bajariladi. Har bir mantiqiy element bir yoki bir necha mantiqiy amalning bajarilishini ta'minlaydi. Quyida eng sodda va keng tarqalgan mantiqiy elementlar bilan tanishamiz. Elementlarning o'zi oddiy elektr sxemalardan tuziladi. Bunda sxemaning kirish qismiga kelgan signalarga argument deyilsa, chiqishdagi signallar esa argumentning funksiyasi bo'лади.

Sxemaning ma'lum qismida signalning mavjud bo'lishi bir (1)ni, mavjud emasligi esa nol (0)ni ifodalaydi.

"VA(&)" va "YOKI" mantiqiy funksiyalarining bajarilishi uchun kiruvchi signallar soni kamida ikkita bo'lishi zarur. Ayrim hollarda esa kiruvchi signallar soni ikkitadan ko'p bo'lishi ham mumkin.

Kompyuterning bazaviy mantiqiy elementlari, asosan, uchta

mantiqiy amalni bajaradi:

1) konyunktor ("VA" mantiqiy elementi) mantiqiy ko'payishni amalga oshiradi;

2) dizyunktor ("YOKI" mantiqiy elementi) mantiqiy qo'shishni amalga oshiradi;

3) invertor ("EMAS" mantiqiy elementi) rad etishni amalga oshiradi.

Quyidagi jadvalda ikkita kiruvchi A va B elementlar uchun "VA" mantiqiy elementining rostlik jadvali ko'rsatilgan. Ko'rinish turibdiki, ikkala kiruvchi element bir vaqtning o'zida "1" kirish signali bilan ta'minlangandagina chiquvchi signal orqali "1" signali hosil bo'ladi. Boshqa uchta holatda chiqish signali nolga teng bo'ladi(5.6.jadval).

Konyunktor – mos tushish sxemasida kamida ikkita (A, B) kiruvchi va bitta (A&B) chiquvchi signal mavjud. Raqamli sxemalarda "VA" mantiqiy elementi 5.1- rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi.

Xorij sxemalarida "VA" elementining belgisi boshqacha ko'rinishga ega (5.2- rasmga qarang). Uni qisqacha AND elementi deb atashadi.

Mantiqiy o'zgaruvchi deb, faqat ikkita: 0 va 1 qiymatni qabul qiluvchi kattalikka aytildi. Mantiqiy funksiya deb, argumentlari faqat 0 va 1 qiymatni qabul qiluvchi funksiyaga aytildi.



5.1-rasm. "VA" mantiqiy elementi elementi 5.2-rasm. "AND"



5.3-rasm. "YOKI" mantiqiy elementi elementi 5.4-rasm. "OR"

"Yoki" mantiqiy elementining rostlik jadvali 5.7-jadval.

Kiruvchi A	Kiruvchi B	Chiquvchi (A&B)
0	0	0
1	0	0
0	1	0
1	1	1

Dizyunktor – yig'uvchi sxemada ham kamida ikkita (A, B) kiruvchi va bitta (A yoki B) chiquvchi signal mavjud.

Ikkita (A, B) kiruvchi signal "YOKI" mantiqiy elementi biroz boshqacha ishlaydi.

Yig'uvchi sxemada ikkita kiruvchi signalning ixtiyoriy bittasi "1" kirish signali bilan ta'minlangsagina, chiquvchi signal orqali "1" signali hosil bo'ladi. Boshqa holatda chiqish signali nol (0)ga teng bo'ladi(5.7-jadval).

Raqamli sxemalarda "YOKI" mantiqiy elementi 5.3-rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi.

Xorij sxemalarida "YOKI" elementining belgisi 5.4-rasmdagi kabi ko'rinishga ega. Uni qisqacha "OR" elementi deb atashadi.

Kiruvchi A	Kiruvchi B	Chiquvchi (A yoki B)
0	0	0
1	0	1
0	1	1
1	1	1

Invertor sxemasida faqat bitta (A) kiruvchi va bitta (A emas) chiquvchi signal mavjud. Invertor sxemasi "teskari zanjir" deb ham ataladi. Invertor sxemasida kiruvchi signalning qiymati qarama-

qarshisiga o'zgaradi. Masalan, kiruvchi signal "1" kirish signali bilan ta'minlansa, chiquvchi signal orqali "0" signali hosil bo'ladi va aksinchalashtiriladi.

Raqamli sxemalarda "EMAS" mantiqiy elementi 5.5-rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi. Xorij sxemalarida "EMAS" elementining belgisi 6-rasndagi kabi ko'rinishga ega. Uni qissqacha "NOT" deb atashadi.



5.5-rasm. "EMAS" mantiqiy elementi 5.6-rasm. "NOT" elementi

"Emas mantiqiy elementining rostlik jadvali"

Kiruvchi A	Chiquvchi (A emas)
0	1
1	0

Mantiqiy elementlardan arifmetik amallarni bajarish va axborotlarni saqlash uchun mo'jallangan murakkab raqamli sxemalar yaratiladi. Bir necha mantiqiy element va ularning turli birikmasi yordamida berilgan funksiyalarni bajarishga qodir sxemalarini tuzish mumkin. Mantiqiy sxema - kompyuter qurilmalarining ishlashini tavsiflovchi har qanday mantiqiy funksiyanı bajaradigan elektron qurilma.

### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mantiqiy element nima?
2. Asosiy mantiqiy elementlar nomini aytинг, ularni sxemalarda tasvirlang.
3. Konyunktör elementi qanday vazifani bajaradi?
4. Dizyunktor elementi qanday vazifani bajaradi?
5. Invertor elementi qanday vazifani bajaradi?
6. Mantiqiy sxemalar nima uchun qurilgan?
7. Mantiqiy sxemalarini yaratish algoritmini aytib bering.

## VI-BOB. KOMPYUTERNING TEHNİK TA'MINOTI

### 6.1. Zamona viy shaxsiy kompyuterlarning tuzilishi


Kompyuter o'zi nima? Hozirgi kunda kompyuter xayotimizing barча sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Agar boshida ishlash uchun foydalangan bo'sa, hozirgi kunda esa kompyuterlar audio, video va chizmachilik ma'lumotlar bilan ishlash uchun keng foydalananadi.

Kompyuter quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan:

- Tizim bloki
- monitor (display yoki ekran)
- klaviatura
- Bundan tashqari printerlar, modem, skanerlar, kalonkalar va boshqqa qo'shimcha qurilmalar ulash mumkin.

### 6.2. Shaxsiy kompyuterlarning asosiy qurilmalari va ularning vazifalari

1. **Tizim bloki.** Kompyuterning asosiy qismi bo'lib, hamma jarayon shu yerda bajariladi. Uning ichida ona platasi, mikroprotsessor, qattik disk (vinchester), tezkor va kesh xotira mikrosxemalari, har xil tashqi qurilmalar ishini bosqaradigan elektron sxemalar (kontrollerlar yoki adabterlar), elektr ta'minlovchi blok va disk yurituvchilar bor.



### Tizim blokining asosiy qismlari:

**Mikroprotsessor yoki protsessor** – kompyuterning miyasi. Kompyuter ishini bosqarish, barча hisob-kitoblar va buyruqlarni bajarishini ta'minaydi. U kichkina, turburburchak elektron sxema sekundiga bir

necha yuz million amallarni bajaradi. Uning tezligi Megagerlarda hisoblanadi va protsessor nomidan keyin yoziladi, masalan Pentium 700.

**Mikroprotsessor**, boshqacha nomi – markaziy protsessor (MzP). Markaziy protsessor (CPU, ingl. Central Processing Unit) – kompyuterning dastur tomonidan berilgan arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni bajaradigan asosiy ish komponenti bo'lib, hisoblash jarayonini boshqaradi va kompyuterda mavjud barcha qurilmalar ishini muvofiqlashadiradi.

MzP o'z ichiga:

- arifmetik-mantiqiy qurilmani;
- ma'lumotlar shinalari va manzillar shinalarini;
- registrlarni;
- komandalar hisoblagichini;
- kesh – kichik hajmli (virtual) xotiraga juda tez (8 dan 512 Kb) yga qadar) saqlash qurilmasini;

Zamonaviy protsessorlar mikroprotsessorlar ko'rinishida tayyorlanadi. Jismonan mikroprotsessor integral sxema ko'rinishidan iborat, ya'ni u umumiyl maydoni atigi bir necha kvadrat millimetrl keladigan to'g'ri burchak shakkga ega kristall holatdagi kreminiyning yupqa plastinkasi ko'rinishida tayyorlangan bo'lib, ustiga protsessorning barcha ishlarini bajaradigan sxemalar (qoliplar) joylashtirilgan.

Ushbu kristall-plastinka, odatta, plastmassa yoki sopoldan tayyorlangan yassi korpusga jylanib, kompyuterning tizim platasiga ulash imkon bo'lishi uchun metall tilchalariga ega simlar bilan ulanadi. Hisoblash tizimida parallel ishlayadigan bir nechta protsessorlar bo'lishi mumkin. Bunday tizimlar – ko'p protsessorli tizimlar deb ataladi.

Eng birinchi MP-4004 rusumli mikroprotsessor 1971-yilda Intel firmasi (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan. Bugungi kunda mikroprotsessorlarning bir necha yuzlab turi tayyorlanadi, biroq ular orasida Intel va AMD firmalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mikroprotsessorlar eng ko'p tarqalgani mikroprotsessorlar deb e'tirof etilmoqda.

### Mikroprotsessoring tuzilishi

**Boshqaruq qurilmasi.** Boshqaruq qurilmasi funksional jihatdan ShKning eng murakkab qurilmasi sanaladi. Ushbu qurilma yo'riqlarning kodli shinasi (YKSh) vositasida mashinaning barcha bloklariga yetib boradigan boshqaruq signalnarini shakkllantiradi.

Komandalar registri – xotirada saqlaydigan registr bo'lib, unda komanda kodi, ya'ni bajarilayotgan operatsiya kodi handa operatsiyada ishtirok etayotgan operandlarning manzillari saqlanadi.

Komandalar registri MPning interfeys qismida, komandalar registrlari uchun mo'ljallangan blok ichida joylashgan.

Operatsiyalar deshiffratorlari – mantiqiy blok bo'lib, o'zida mavjud ko'plab chiqish yo'llaridan birini tanlaydi.

Mikrodasturlarni xotirada doimo saqlovchi qurilma (XDSQ) – ShK bloklarida axborotga ishllov berish operatsiyalari bajarilishi uchun zarur bo'ladigan boshqaruvcchi signalnarini (impulslarni) o'z uyalarida saqlaydigan qurilma sanaladi. Deshiffrator tomonidan operatsiya kodiga muvofiq tanlangan operatsiya impulsi boshqaruvcchi signalnarning zaruriy izchilligini mikrodasturlarni XDSQ ichidan solishtirib chiqaradi.

Manzil shakkllantiruvchi uzel (MPning interfeys qismi ichida joylashgan) – komandalar registri va MPX registrlaridan kelayotgan rekvizitlar bo'yicha xotira (registr) uyasining to'liq manzillini hisoblab chiqaradigan qurilma. Ma'lumotlarning kodli shinasi, manzillar va yo'riqlar – mikroprotsessordagi ichki shinaning bir qismi sanaladi.

Aksariyat hollarda BQ quyidagi asosiy amallarning bajarilishi uchun mo'ljallangan boshqaruq signalnarini shakkllantiradi:

- MPX komandasining manzildagi hisoblagich-registr ichidan dasturning navbatdagi komandasini saqlanayotgan xotiraga tezkor saqlash qurilmasi (XTSQ) uyasining manzilini tanlab olish;
- XTSQ uyasi ichidan navbatdagi komandaning kodini tanlab olish hamda solishtirib chiqarilgan komandani komandalar registriga qabul qilib olish;

- operatsiya kodlari va tanlangan komanda alomatlarining shifrini ochish;

XTSQning shifri ochilgan operatsiya kodiga muvofiq keluvchi uyalari ichidan boshqaruvchi signalarning (impulslarning) mashinada mavjud barcha bloklarda ma'lum operatsiya ijrosining tartibini hamda boshqaruvchi signalarning ushbu bloklarga qayta yuborilish tartibini belgilab beruvchi mikrodasturlarni solishtirib chiqarish;

- komandalar registri va MPX registrlari ichidan hisoblarda ishtirok etayotgan operandlar (sonlar) manzillarining alohida tarkibiy qismlarini solishtirib chiqarish hamda operandlarning to'liq manzillarini shakkllantirish;
- va ushbu operandlarga ishllov berishga oid ma'lum operatsiyani bajarish;
- dasturning navbatdagi komandasiga taalluqli manzilni shakkllantirish.

### Arifmetik-mantiqiy qurilma

Arifmetik-mantiqiy qurilma axborotni o'zgartirishga oid arifmetik va mantiqiy operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan qurilma sanaladi. Funktsional jihatdan AMQ, odatta, ikkita registr, summator va boshqaruv sxemasidan (mahalliy boshqaruv qurilmasidan) tashkil topgan.

Summator – kirish qismiga kelayotgan ikkilik sonli kodlarni qo'shish amalini bajaruvchi hisoblash sxemasi bo'lib, mashinaning ikkilangan so'ziga oid razryadlik darajasiga ega.

Boshqaruv sxemasi yo'riqlarning kodli shiniasi orqali boshqaruv qurilmasidan boshqaruv signallarini qabul qilib, registrlar va AMQ summatori ishini boshqarish uchun mo'ljallangan signalarga aylantiradi.

**Qattik disk yoki vinchester** - doimiy xotira. Ma'lumotlarni doimo saqlash uchun foydalananadi. U vinchester deb nomlanadi. Winchester

nomi birinchi qattik disk nomidan kelib chiqqan. Ular xajm va ishslash tezligi bilan farqlanadi.

**Tezkor xotira mikrosxemalari** - kompyuterning vaqtinchalik xotirasi. U dasturlar ishslash jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalananadi. Kompyuter o'chirilgandan keyin shu xotiradagi ma'lumotlar yo'qotiladi.

**Kesh xotira mikrosxemalari** - kompyuter tomonidan dasturlar ishslash jarayonida ko'p ishlataligan ma'lumotlarni saqlash tovush plata, tarmoq platasi va h.k.

**Asosiy (Ona) plata (Mother board)** - asosiy elektrisosxema bo'lib unga protsessor, tezkor va kesh xotira mikrosxemalari, kontroller va adabter elektrisosxemalari o'matiladi, qattik disk va disk yurituvchilari ulanadi.

